

# IV. ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YOSHLARNING O'RNI

## AYOLLARNING IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI

Nigina Shermuhamedova

O'zbekiston Milliy universiteti Falsafa va ma'naviyat asoslari kafedrasini mudiri, falsafa fanlari doktori, professor

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ayollarning ma'rifati, ularning ijtimoiy faolligi va tengligini ta'minlash jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida dolzarb ahamiyat kasb etganligi haqida ma'lumotlar berilgan. Avesto muqaddas kitobida ayollarning erkaklar bilan teng huquqlari, ularning ijtimoiy faol bo'lishi uchun o'qish, mehnat qilish, oila qurish, xo'jalik ishlariga o'rgatish qoidalari haqida fikrlar o'z ifodasini topganligi e'tirof etilgan.

**Kalit so'zlar:** Avesto, o'qish, mehnat, gender tenglik, faollik, ma'rifat, ozodlik.

Qadimgi Turon ayol sarkardasi To'marisning o'z qabilasini mahorat bilan boshqarishi va Eron podshosi Kir II ga qarshi mardlarcha kurashishi islomgacha bo'lgan davridayoq ayollarning davlat boshqaruvidagi ijtimoiy tengligi qaror topganligidan dalolat beradi. Shuningdek, XV asrda Janna d'Ark, Fransiyaning Orlean shahrini inglizlardan himoya qilishda katta armiyani boshqargan bo'lsa, XIX asrda Hindistonda ingliz mustamlakachilariga qarshi sipohiyalar qo'zg'olonida Lakshmi Bai ayollar polkini boshqargan. XX asrda Amerika-Vyetnam urushida Shaolin mardlarcha partizanlar otryadini boshqargan va erkaklar bilan bir qatorda o'z vatani ozodligi uchun kurashgan va millat qahramoniga aylangan.

VII asrdan islom dinining tarqalishi bilan ijtimoiy munosabatlar va diniy e'tiqod o'zgargan va agar islomgacha bo'lgan davrda ayol va erkakning huquq va erkinliklarining tengligi ta'minlangan bo'lsa, islom dini tarqalishi bilan ayollar va erkaklarning ijtimoiy tengligiga muayyan taqiqlar qo'yilgan. Biroq, shunday vaziyatda ham ayollar o'z haq-huquqlarini himoya qilishda davom etganlar. Masalan, Amir Timurning davlat boshqaruvi davrida Saroymulxonim ayollar uchun madrasa qurish va ularda ayollarning ilm-u ma'rifatini oshirishni tashkil etgan, Boburiylar sulolasining vakili, Avrangzebning qizi Zebuniso, XVIII oxiri XIX asrning boshlarida Amir Umarxonning turmush o'rtog'i Nodirabegim, Uvaysiy, XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan Anbar otin islom dini ma'rifatini targ'ib qilgan va ayollarning huquqlarini himoya qilgan. Nizomiy Ganjaviyning Xisrav va Shirin,

Alisher Navoiyning Farhod va Shirin dostonlaridagi bosh obrazlardan biri Mehinbonu ayollarning boshqarish qobiliyatining badiiy ifodasi bo'lsa, XI asrda Arvay al Sulayxiy erining vafotidan keyin 1067-dan 1138-yilgacha Yaman podsholigini boshqargan birinchi ayol sifatida tarixda qolgan, 630 yil davom etgan Usmoniylar saltanatini 130 yil davomida boshqargan Xurram xonim, Ko'sem va Totem xonimning mahorat bilan Turk saltanatini boshqarganligi, ayollar ham davlatni boshqarish mahoratiga ega ekanligining yorqin namunasidir.

XX asrda, xususan 1988–1990, 1993–1996-yillarda Benazir Bxuttoning Pokiston Islom Respublikasining bosh vaziri, 1992–1996-yillarda Tansu Chillerning Turkiya Respublikasining bosh vaziri, 1995–1996-yillarda Xolida Ziyening – Bangladesh respublikasining bosh vaziri, 1997–2005-yillarda Ma'sumeh Ebtakarining Eron islom Respublikasining vitse Prezidenti lavozimida ishlashi bir tomondan islom dinining sekulyarlashuvi, ya'ni erkinlashuvi, ikkinchi tomondan islom davlatlarida ayollarning ijtimoiy faolligi barcha davrlarda yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi. Bu jarayon hozirgi davrda ham davom etayotganligi e'tiborga molik, xususan, 2001–2004-yillarda Indoneziyaning Prezidenti Megavati Sukarnoputri, 2009-yillarda Bangladesh Respublikasining bosh vaziri Shayx Xasina Vajed, 2017-yildan Singapur Prezidenti Xalima Yakub davlat boshqaruvida yuqori mahorat va fidoyilikni namoyon etmoqdalar.

Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning qonuniy huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini ta'minlash, ularning jamiyat va davlat hayotidagi rolini kuchaytirish, shuningdek, gender tengligiga erishish ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Shu nuqtayi nazardan, tarixiy voqelik va jahon tajribasini o'rganish asosida yangi O'zbekistonda gender siyosatini ta'minlashning institutsional asoslari ishlab chiqilgan. Xususan, O'zbekistonda gender tengligini ta'minlash bo'yicha komissiya tuzildi [1].

Parlament yuqori palatasining Xotin-qizlar va gender tengligi masalalari qo'mitasining faoliyati davlat siyosatini amalga oshirish va gender tengligini ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, bugungi kunda bu boradagi parlament nazorati izchil amalga oshirilib, qo'mita tomonidan gender tengligini ta'minlash bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosini nazorat qilib bormoqda. Bugungi kunda Respublika Xotin-qizlar jamoatchiligi kengashi faoliyatining asosiy vazifalaridan biri ayollar va qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, BMTning "Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konvensiya qoidalarini hayotga tatbiq etish va ayollarga nisbatan har qanday kamsitish shakllari bilan bog'liq masalalarni muvofiqlashtirish hamda Pekin harakat platformasi va Milliy harakat rejasini amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, yosh qizlarning ilm-u ma'rifatiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, 2019-yildan kam ta'minlangan oilada tarbiyalanayotgan qizlarga davlat byudjetidan oliy ta'limga o'qishga kirish uchun 5 % lik kvota ajratildi, 2020-yilda bu ko'rsatkich 10 foizga oshdi va bu jarayon davom etmoqda. 2022-yilda barcha yoshdagi ayollarning magistraturada davlat byudjeti hisobiga o'qishining tashkil etilishi "ayoli ma'rifatli jamiyat ma'rifatli bo'ladi" ezgu g'oyasining ijrosini ta'minlashga yo'naltirilgan.

Ayollarni ish bilan ta'minlash va "Har bir oila – tadbirkor", "Farovon qishloq", "Beshta muhim tashabbus" konsepsiyalarida belgilangan ezgu g'oyalarning ijrosini ta'minlash maqsadida xususiy banklar tomonidan ayollar uchun maxsus imtiyozli kredit ajratilmoqda. Masalan, so'nggi besh yilda ayollarga 7,4 trillion so'm imtiyozli kredit ajratildi. 2021-yilda tadbirkor ayollar uchun O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish jamg'armasidan 1,4 trillion so'm ajratilgan, 620 200 ming ayol ish bilan ta'minlandi, 106 ming ayolga xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanishi uchun sharoit yaratilgan, birgina 2020-yilda "Har bir oila – tadbirkor" ezgu g'oyasi doirasida 126 ming

nafar ayolga imtiyozli kreditlar ajratilgan, 125 ming nafar ayolga oila tadbirkorligini rivojlantirish uchun kredit ajratilgan. Beshta muhim tashabbus doirasida viloyat va tumanlarda yashayotgan ayollar uchun tikuv sexlari tashkil etilgan, 10 mingdan ortiq ayolning bandligi ta'minlangan [3].

Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi rolini tubdan oshirishga alohida e'tibor qaratilib, qonunchilik bazasini takomillashtirish bu boradagi ustuvor yo'nalishlardan biridir. Shu bois, O'zbekistonda ayollarni har qanday kamsitish va ta'qiblardan huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy himoya qilishni nazarda tutuvchi xalqaro shartnomalarni amalga oshirishning faol ishtirokchisi ekanligi nuqtayi nazaridan O'zbekistonda genderga oid quyidagi qonunlar qabul qilindi:

- “Ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarning kafolatlari to'g'risida”;
- “Ayollarni ta'qib va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida”;
- “Fuqarolarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish to'g'risida”;
- “Oila kodeksining 15-moddasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”;
- “O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o'zgartishlar kiritish to'g'risida”;
- “Ayollarning mehnat faoliyatining ilgari taqiqlangan turlarini tanlashi bilan bog'liq cheklovlarni va mehnat qonunchiligining boshqa gender-asimmetrik qoidalarini olib tashlash to'g'risidagi” qonunlar shular jumlasidandir [4].

Bu qonunlarning qabul qilinishi O'zbekiston ayollarining huquq va erkinlarining himoyasini kafolatlaydi. O'zbekistonda 2030-yilgacha bo'lgan davrda gender tenglikka erishish bo'yicha Strategiya ishlab chiqilmoqda, bu esa jamiyat hayotida ayollar, shuningdek, erkaklar uchun teng huquq va teng imkoniyatlarni ta'minlaydi. Shu munosabat bilan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyodagi Aholishunoslik jamg'armasining mintaqaviy direktori Alan Armitaj “Ushbu strategiyaning amalga oshishi natijasida O'zbekistonda ko'proq ayol yetakchilar paydo bo'lishini, urbanizatsiya barqaror sharoitda amalga oshishini” ta'kidlagan va bu taklifning ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekistonda tizimli faoliyat olib borilmoqda.

Umuman olganda, O'zbekistonda 17 milliondan ortiq xotin-qiz uchun munosib turmush sharoiti yaratilgan. O'zbekistonda ham qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari, ham sud hokimiyati vakillari orasida siyosatchi ayollarning jadal o'sishi kuzatilmoqda. Masalan, O'zbekistonda 2021-yilda milliy parlamentlarda ayollarning global ulushi 25,5 foizni tashkil etdi. 2019-yil yakunlari bo'yicha parlament saylovi yakunlariga ko'ra, xotin-qizlar Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 32 foizini, Senatda esa 25 foizini xotin-qizlar tashkil etdi. Bu esa, O'zbekistonning gender tenglikni ta'minlash bo'yicha 50 ta yetakchi davlat (190 ta davlat ichida) qatoridan joy egallashini, deyarli barcha postsovet davlatlaridan oldinga chiqib olishini ta'minladi. Bu O'zbekiston parlamenti faoliyatini tashkil etishdagi prinsipial yangicha yondashuvdan, shuningdek, gender tenglikdan dalolat beradi [5].

Ayni paytda muayyan muammolar ham borligini tan olish maqsadga muvofiq, xususan, ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish uchun bolalarning davlat tomonidan himoyasini tashkil etish, ya'ni 3 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun “yasli” guruhlarini tashkil etish, maktablarda kuni uzaytirilgan guruhlarini tashkil etish va ularda bolalarning uyga vazifasini bajarish uchun sharoit yaratish, davlat tashkilotlarida soat 18.00gacha ishlaydigan ayollar uchun 2 soatga ish kunini qisqartirish ularning bolalarini bog'cha va maktabdan olish va o'z uyida farzandlari tarbiyasiga va oila yumushlariga ko'proq vaqt ajratish imkonini berar edi. Demak yangi O'zbekistonda ayollarning ma'rifatlilik darajasini oshirish, ularni ijtimoiy himoyalash jarayoni tizimli tashkil etilgan bo'lib, bu yurtimizda avlodlararo vorisiylikning ta'minlanayotganligidan dalolat beradi.



**Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2017.
2. Abdurahmonov Q. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish. – Toshkent, 2010.
3. Kalanova S. Ayollar va bolalar ijtimoiy himoyasi. – Toshkent, 2017.
4. Seyitnazarov M. O'zbekiston Respublikasining ayollarga oid davlat siyosati va uning huquqiy asoslari. – Nukus, 2016.
5. Aralova M. Mamlakatimizda ayollarga yo'naltirilgan ijtimoiy siyosatning o'ziga xos xususiyatlari. – S., 2014.

## TALABALARDA AKADEMIK NOTIQLIKNI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Nasiba Abdullayeva

*O'zMU Falsafa va ma'naviyat asoslari kafedrasini  
professor v.b., falsafa fanlari doktori*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy ta'limda akademik nutqning o'ziga xos xususiyatlari, talabalarda ilmiy notiqlikni shakllantirishda pedagogik texnologiyaning o'rniga e'tibor qaratilgan. Akademik nutq usullari tahlil etilgan hamda oliy o'quv yurtlarida akademik savodxonlikni shakllantirishning ahamiyati ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** nutq, akademik nutq, pedagogik texnologiya, ilmiy uslub, ritorika, tizimlilik, mantiqiylik, ilmiy ma'ruza.

Sharq allomalari insonda lisoniy tuyg'u tarbiyasi tugal bo'lishi, til aloqa vositasigina emas, balki suhbatdoshga ta'sir etish, unda ezgu niyatlarni shakllantirish vositasi ekanligini ta'kidlashgan. Jumladan, Alisher Navoiy voizning so'zlari ta'sirchan va foydali bo'lishi, nutq tinglovchi uchun yangilik bo'lishi, notiq biror sohani egallagan bo'lishi, notiq olim va bilimdon har narsadan xabardor bo'lishi, ishi va so'zi bir bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Bu esa olim nutqi ya'ni ilmiy nutqqa e'tibor qadimdan mavjudligini ko'rsatadi. Keyinchalik notiqlik san'ati – ritorikaning shakllanishi natijasida har bir uslubga xos xususiyatlar belgilab borildi, fan-texnikaning rivoji esa ilmiy uslub bilan birgalikda unga xos terminlarni ham yuzaga keltirdi.

Akademik notiqlik an'anaviy atama bo'lib, ilmiy notiqlikni anglatadi. Sof ilmiy notiqlik boshqa nutq turlaridan chuqur argumentatsiyasi, yuqori mantiqiy madaniyat, qat'iy nutq uslubi, shuningdek, o'ziga xos terminologiyasi bilan ajralib turadi. Akademik nutq ilmiy va ommabop ilmiy funksional uslubni anglatadi. Akademik savodxonlikni shakllantirish nafaqat o'qish va yozish ko'nikmalarini, balki ma'lum bir madaniy muhitga mos keladigan fikrlash tarzini rivojlantirishdir. Shundagina biz akademik savodxonlik diskursiv modelining mavjudligi va jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lish qobiliyatini shakllantirishda yozuvning ijtimoiy amaliyot sifatida ahamiyati haqida gapirishimiz mumkin. Zamonaviy ta'limda ayniqsa yozish qobiliyati talabalarning ilmiy taraqqiyotiga bevosita ta'sir qiladi va ularning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga hissa qo'shadi.

Akademik notiqlik bu zamonaviy olimlar va pedagoglar arsenalidagi muhim mahoratdir. Konferensiyalarda nutq soʻzlash, dissertatsiyalar yozish va himoya qilishdan tortib, taʼlim faoliyatiga qadar samarali va ifodali muloqot qobiliyatlari kasbiy faoliyatning barcha jihatlarida muhim ahamiyatga ega. “Akademik ritorika – bu ayniqsa ilmiy va taʼlim sohalarida gʻoyalarni ishonchli va aniq tarzda shakllantirish va taqdim etish sanʼati. Bu talabalar va keng jamoatchilik bilan samarali muloqot qilish imkonini beruvchi mahoratdir [1].

Akademik ritorika uni boshqa barcha notiqlik turlaridan ajratib turadigan bir qator oʻziga xos xususiyatlarga ega. Bular: aniqlik, murakkab gʻoyalarni iloji boricha sodda tarzda taqdim etish, mavzuni chuqur tushunishni va tinglovchilarga tushunarli tilda oʻzini ifoda etish va boshqalar. Shu bilan birga akademik nutq quyidagi jihatlariga ega:

**Tizimlilik.** Maʼruza, taqdimot mantiqan tuzilgan boʻlishi kerak, shunda tinglovchilar maʼruzachining fikrlarini osongina kuzatib borishlari va maʼlumotni yaxshiroq oʻzlashtirishlari mumkin.

**Dalillash yoki argumentatsiya.** Barcha bayonotlar faktlar, tadqiqot maʼlumotlari va mantiqiy mulohazalar bilan tasdiqlanishi kerak. Bu bayonotlarga salmoq va ishonchlilik beradi.

**Tinglovchilarga moslashish.** Ijtimoiy soha talabalari yoki aniq fanlar sohasi boʻladimi, til va nutq uslubini maʼlum bir maqsadli guruhga moslashtira olish muhimdir.

**Koʻrgazmali qurollardan foydalanish.** Taqdimotlar, grafikalar va diagrammalar maʼlumotni yaxshiroq idrok etishga yordam beradi.

**Axloqiy meʼyorlarga rioya qilish.** Madaniy meʼyorlarni buzish akademik sohada qabul qilinishi mumkin emas. Muloqotni odob bilan davom ettirish, turli vaziyatlarda hamkasblar va boshqa tadqiqotchilarning fikrlarini hurmat qilish kerak. Bu xususiyatlar ritorika nafaqat maʼlumot yetkazish usuli, balki maʼruzachidan tajriba va tayyorgarlikni talab qiladigan butun bir sanʼat ekanligini koʻrsatmoqda.

Oliy oʻquv yurti pedagoglarining maʼruzalari aniq va tushunarli boʻladi, chunki dastur asosida ishlanadi. Oʻqitishda materialni tizimli ravishda taqdim etish alohida ahamiyatga ega. Bu oʻqituvchidan nafaqat mavzu boʻyicha chuqur bilimga ega boʻlishni, balki materialni qiziqarli va tushunarli taqdim etish qobiliyatini ham talab etadi.

Pedagog ishining samarasi, asosan, uning nutqi bilan bogʻliq, pedagogning kreativ kompetentligi uning faoliyatida ijodkorlik, izlanuvchanlik, bunyodkorlik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik fazilatlarini talab etadi. Bu esa taʼlimning sifati samarasiga ijobiy taʼsir etadi [2].

Notiqning nutqi chiroyli, jozibali boʻlish bilan bir qatorda mazmunli, kuchli boʻlishi zarur. Ilmiy-ommabop maʼruzalar universitet maʼruzalaridan farqli oʻlaroq bilimlarni keng jamoatchilik orasida tarqatishga qaratilgan. Ular sodda va tushunarli tilda minimal ixtisoslashgan atamalarda farqlanadi va koʻpincha tinglovchilar eʼtiborini jalb qilish uchun qiziqarli faktlar va misollarni oʻz ichiga oladi [3; 124]. Konferensiya va seminarlardagi ilmiy maʼruzalarda tadqiqot natijalarini taqdim etishga eʼtibor berishadi. Bu yerda ishning ahamiyatini aniq koʻrsatish, shuningdek, tadqiqotning asosiy gʻoyalari va xulosalarini taqdim etish qobiliyati birinchi oʻringa chiqadi.

Akademik nutqda quyidagi asosiy holatlarga alohida eʼtibor berish lozim:

- oʻzi toʻxtalmoqchi boʻlgan mavzuni (masalani) chuqur oʻrganish, oʻzlashtirib olish, undagi masalalarga oʻz munosabatini aniq belgilab olish;
- oʻz dunyoqarashiga ega boʻlish, soʻz bilan ish birligi, nazariya bilan tajribaning dialektik birligiga erishish, fikrlarni ilmiy asoslash;

- mavzuga mas'uliyat bilan yondashish, uni omma oldida to'liq ochib berishga diqqat qilish;

- ma'ruzalar, ommaviy chiqishlar paytida tinglovchilar bilan yaqin aloqa, muloqotni ta'minlash, tinglovchilarning kayfiyatini his qilib turish, bu fikrlarini tushunib olishgina emas, balki fikrlarga ishontira olishni ham ta'minlaydi.

Bugun talabalarda akademik notiqlikni shakllantirishda har bir fan xususiyatlaridan kelib chiqib turli xil zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash maqsadga muvofiq. Masalan, O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakultetining Falsafa yo'nalishida o'qitiladigan "Ritorika" fanida talabalar bilan mavzuga doir bahs-munozara, davra suhbat, notiqlikda bellashish, ularning erkin muloqot sirlarini egallashlariga yordam berish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Shundaygina yoshlarning aniq va lo'nda fikr egasi bo'lishlariga erishish mumkin.

O'qitish jarayonida, har bir mavzu yuzasidan talabalarning og'zaki va yozma nutqiga e'tibor qaratish, ularda tildan mohirona foydalanish, chinakam madaniy nutqni egallashda amaliy yordam ko'rsatishi, nutqning maqsadga muvofiq va ta'sirchanligini ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarni egallashi uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar katta e'tibor qaratish lozim. Olib boriladigan mashg'ulotlar jarayonida "Aqliy hujum", rolli o'yinlar talabalarda mustaqil fikrlash bilan birga o'z fikrlarini mantiqiy, asosli, lo'nda ifodalash imkonini beradi.

Omnia orasida nutq so'zlashni o'rgatishda "Bumerang" texnologiyasining qo'llanishi ham samarador sanaladi. Mazkur texnologiyada talabalarga turli xil ko'rinishdagi (ochiq, yopiq, ko'ndalang) savollar beriladi. Talabalarda tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi, o'z g'oya va fikrlarini og'zaki yoki yozma shakllarda bayon etish qobiliyatlarini shakllantiradi. Ochiq savollar muomala, so'zlashuvni davom ettirishga imkon beradi.

Akademik nutqni shakllantirishda ayniqsa "Ma'ruza-anjuman» texnologiyasi ham ahamiyatlidir. Talabalarga ma'ruza mavzulari oldindan belgilab beriladi. Talabalar ushbu mavzu bo'yicha tayyorlanib, chiqish qilishadi, bu talabalarni konferensiya va anjumanlarda ma'ruza qilishga tayyorlashda muhimdir.

"Matbuot konferensiyasi", FSMU texnologiyasi o'z fikrlarini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikriga boshqalarni ishontirishga, ochiq-oshkora bahslashishga, egallagan bilimlarni tahlil qilishga, ularni qay darajada egallaganligini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

Shunday qilib, nutqqa tayyorgarlik ko'rayotganda mavzuning ishonchli asosli rivojlanishi, uning yaxshi ma'lumot bilan ta'minlanishiga e'tibor qaratish lozim. Har bir pedagogik texnologiya talabalarda akademik notiqlikni shakllantirishda alohida o'ringa egadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Лытаева М.А., Талалакина Е.В. Academic skills: сущность, модель, практика // Вопросы образования, 2011. – № 4. – С. 178–201.

2. Миронов Е.В. Формирование академической грамотности студентов: опыт факультета государственного управления // Высшее образование в России, 2013. – №7. – С. 101–104.

3. Jumaniyozov R. Pedagogik mahorat va kommunikativ kompetentlik. – Toshkent, 2021.

4. Yuldoshev J., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: Fan va texnologiya, 2008.



# OLIV HARBIY TA'LIM MUASSASASI KURSANTLARIDA FUQAROLIK KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA MILLIY HARBIY QADRIYATLARIMIZNING AHAMIYATI

Kozimbek Xaydarov

*O'zbekiston milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik  
o'quv markazi boshlig'i, pedagogika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, polkovnik*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy harbiy ta'limda aksiologik yondashuvdan foydalanishning ahamiyati, samaradorligi, imkoniyatlari va zarurati, aksiologik yondashuvning mazmuni, ta'riflanishi va pedagogik jarayonda qo'llanish o'rni va usullari ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga aksiologik yondashuv asosida oliy harbiy ta'lim muassasasida ta'lim olayotgan kursantlarda fuqarolik kompetensiyasini takomillashtirishda milliy harbiy qadriyatlarning ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, texnologiya, milliy qadriyatlar, millat, kursant, kompleks yondashuv, bo'lajak ofitser, vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, aksiologik yondashuv, milliy harbiy qadriyatlar, aksiologik munosabat.

Ma'lumki, bugungi globallashuv va keskin raqobat davrida, dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizda yuz berayotgan qurolli mojarolar va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar oldimizga kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalarni qo'ymoqda. Bugungi globallashuv davrida xalqlarning ijtimoiy ongida fuqarolik kompetensiyasini takomillashtirishga, ular qalbida yuksak harbiy vatanparvarlikni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilgan. Bugungi kunda bo'lajak kadrlarni tayyorlashda, ularning kasbiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda qadriyatli yondashuvdan foydalanish dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, qadriyatlar sohasida millat, unga xos belgilar, omillar, ularning paydo bo'lish holatlariga belgilangan darajada ta'sir ko'rsatgan muhit, u bilan bog'liq his-tuyg'ular, o'zbek millatining madaniyati, u yaratgan madaniy boyliklar va ma'naviy meros bilan bog'liq qadriyatlar ham juda dolzarb va muhim rol egallaydi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda kompleks yondashuv asosida bo'lajak ofitserlarning fuqarolik kompetensiyasi texnologiyalari rivojlanmoqda, jamiyatimizda qabul qilingan shaxsning ma'naviy-axloqiy me'yorlarini o'rganish va boyitish qobiliyatiga ega malakali mutaxassislar tayyorlash tizimi takomillashtirilmoqda, ularning faoliyatini samarali tashkil etish uchun bilim va ko'nikmalarni qo'llash maqsadida normativ-huquqiy asos ishlab chiqilmoqda. Shu munosabat bilan, zamonaviy sharoitda respublikada jamoat xavfsizligini ta'minlash uchun bo'lajak ofitserlarda fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishning maqbul usullarini tanlash bo'yicha pedagogik imkoniyatlar kengaymoqda. "Taraqqiyot strategiyasi"da "yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash...." kabi vazifalarni belgilanganligi bo'lajak ofitserlarda fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish ehtiyojini yanada oshiradi. Buning uchun bugungi jiddiy qiyinchiliklar

va oldindan aytish qiyin bo'lgan tahdidlarni samarali bartaraf etishga qodir bo'lgan milliy armiya asoslarini yanada mustahkamlash zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrda "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi 158-sonli farmonida [1] xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, harbiy fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari ta'kidlanadi.

Kursantlarda milliy harbiy merosni asrab-avaylashga doir bilimlarini takomillashtirish orqali ularda milliy harbiy merosga qadriyatli munosabatni shakllantirish mumkin bo'ladi. Kursantlarda o'zbek milliy harbiy merosiga doir bilimlarini rivojlantirish orqali jamiyatda milliy madaniyatni shakllantirish va aksiologik mas'uliyatni takomillashtirish mumkin bo'ladi.

Milliy madaniyatimizni yuksaltirishda, jamiyat a'zolarining dunyoqarashini kengaytirishda, fikrlash qobiliyatini o'stirishda milliy qadriyatlarimizning o'rni beqiyosdir. Milliy qadriyatlarimiz azaldan xalqimiz tomonidan ardoqlanib kelishini yaxshi bilamiz; ular katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Milliy qadriyatlarimiz milliy tafakkurni ma'naviy kamol toptirishda asosiy vosita sanalgan.

Pedagogik jarayonda ma'lum bir muammoga alohida e'tibor qaratish, bilim yoki ko'nikmani shakllantirishga qadriyatli munosabatni yuzaga keltirishda aksiologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy bilishda olam, undagi narsa, voqea, hodisa va boshqalar qadriyatning inson ongida aks etishi, qadriyatni anglashning reallikka mos kelish qonunlari, daraja va imkoniyatlari, uning me'yor va mezonlarini aniqlash nihoyatda muhim. Bunga umumiy bilish ilmi bilan bir qatorda ijtimoiy va tabiiy fanlarning ma'lumotlariga, ayniqsa, oliy asab sistemasining fiziologiyasi, hissiyot organlari va aqliy faoliyatning dalillariga, mantiq, tilshunoslik kabi fanlarning yutuqlariga tayaniladi.

Yuqorida aytib o'tilgan barcha qadriyatlarimiz millat kishilari uchun umumiy hisoblanib, alohida shaxs qadriyatlarini umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lovchi halqalardan biri hisoblanadi. V. P. Zinchenko XX asr umuminsoniy qadriyatlarining eng yuqori darajada qadrsizlanish davri deb aytish mumkinligini ta'kidlab o'tadi [2; 304]. Ana shu sababli yangi ming yillikda ilmiy jamoatchilik insoniyat tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan qadriyatlarni aniqlash, tartibga solish va tizimlashtirishga faol harakat qilmoqda. Bu jarayon ta'limga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Ya'ni ta'limda aksiologik yondashuvdan foydalanish asosida fanga, ilmiy yondashuvlarga va yoki ilmiy jarayonga qadr tuyg'usi bilan qarash va unga ergashish ehtiyojlarini yuzaga keltirmoqda.

Oliy harbiy ta'lim kursantlari umuminsoniy qadriyatlarni anglashda, o'zining harbiy ta'lim olish faoliyatini ushbu qadriyatlar mezoniga moslashtirishda milliy qadriyatlarni hisobga oladi va ular bilan bog'liq jihatlarni ko'zda tutadi.

Millat – nima? Milliy qadriyatlar nima? Ilmiy adabiyotlarda "millat" tushunchasi bilan bir qatorda *demos*, *etnos*, *nufus*, *xalq* kabi tushunchalar ham qo'llanib keladi. Sobiq Ittifoq vaqtidagi ma'lumotlarda millatga turlicha yondashuv va uni har xil ta'riflash mavjud bo'lgan. Ushbu xilma-xil ta'riflarda umumiylik, ya'ni sinfiy, partiyaviy, mafkuraviy yondashish yaqqol ko'rinib turgan. Dunyodagi xalqlar orasida aynan shu millatning borligi, mavjudligi, betakrorligi, ko'hna tarix shodasida bitta



marjon sifatidagi zohirligi har bir bo'lajak ofitser uchun muhim ahamiyatga ega bo'lishi tabiiydir.

Milliy qadriyatlar turli shaklda, bir-biri bilan uzviy aloqada namoyon bo'ladi, ya'ni o'ziga xos milliy qadriyatlar tizimini tashkil qiladi. Bu tizimda tabiiy-tarixiy birlikni ta'minlovchi qadriyatlar: qon-qarindoshlik, madaniy-ma'naviy yaqinlik, o'tmish va ma'naviy meros, ona yurt tuyg'usi nisbatan barqaror bo'g'in hisoblanadi.

Pedagogik aksiologiya ma'lum bir obyektning qadriyatlar prizmasi asosida ko'rish, qadriyatli munosabatni hosil qilish asoslari, unga berilgan bahoning xususiyatlari asosida yondashishga asoslanadi. Pedagogik aksiologiya sohasida tadqiqotlar olib borgan olim B. Xodjayevning ta'kidlashicha, shaxsning o'z ichki pozitsiyasini anglashi va aniq qadriyatlar bilan bog'liqlikda amaliy faoliyatga tayyorligi qadriyatli ustanovkaning mohiyatini belgilab beradi. Ustanovka shaxsning aniq faoliyatga tayyorgarlik holatini aks ettiruvchi kognitiv (bilim, axborot) va affektiv (emotsiya, hissiyot) komponentlar majmuyi sifatida namoyon bo'ladi [3, 17].

Qadriyatlarni anglash, o'rganishda hissiy va aqliy bilishning uyg'unligi, hukm, xulosalarning tushuncha, atama va belgilarni umumlashtirishi, tabiiy va ijtimoiy voqelikdagi aksiologik jarayonlarni tahlil qilish, ularga tayanib amaliy faoliyat yuritish bir-biri bilan bog'liq uzviy jarayonni anglatadi. Misol uchun, qurol-yarog'larni takomillashtirish, atom-yadro sohasidagi kashfiyotlar ham ilmiy bilish chegarasini kengaytiradi. Biologik va kimyoviy jarayonlarning yangi qirralarini ochish, genlar injeneriyasi, psixoterapiya sohasidagi tadqiqotlar ham bilimlarga bilim qo'shmoqda. Ammo ularning inson hayoti uchun ahamiyati qanday? Ular haqiqiy qadriyatlarga xizmat qiladimi? Bu sohalarda yangilikning yoki foydaning qo'lga kiritilishi insoniyatga yaxshilik keltiradimi? Ba'zi iqtisodiy foydalarning qadri nihoyatda oz, ular aslida insoniyatga ziyon keltirish emasmi? Bu muammolarga aksiologik yondashuv ularni to'g'ri anglash imkonini beradi. Yangi yerlarni o'zlashtirish, daryolarni o'z o'zanidan boshqa yoqqa burish, tibbiy muolajada qisqa muddat foydali bo'lgan ba'zi dori-darmonlardan (doping) foydalanish borasida aksiologik yondashuvga asoslanilmaganligi to'g'risida ko'plab misollar keltirish mumkin. Ammo, afsuski, jahonning ba'zi joylarida haligacha bu sohalarga g'ayriaksiologik qarash mavjudligini, bunda ko'proq iqtisodiy foyda olish va kundalik maqbullikning orqasidan quvish ustuvor bo'layotganligini alohida ta'kidlash lozim. Butun jahonda bunday yo'ldan borishning halokatli ekanligi e'tirof etilmoqda va rivojlanishning samarali yo'llari taklif qilinmoqda.

Demak, kursantlarda milliy qadriyatlarni asrab-avaylashga doir bilimlarini rivojlantirishda harbiy ta'limda aksiologik yondashuvdan foydalanish, kursant shaxsiga qadriyatli munosabat va bahoni bera oluvchi dunyoqarashni shakllantirish talab etiladi. Shu bilan birga kursant shaxsini qadriyatli faoliyatga tayyorlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Aksiologik yondashuvning tadqiqiy maqomi kursantlarda milliy qadriyatlarga doir bilimlarni takomillashtirishning tizimli modelida turli xil vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi: gnostik (akmeologik motivatsiyani rivojlantirish uchun ijtimoiy ahamiyatli qadriyatlarni aniqlash); yo'naltiruvchi (akmeologik motivatsiyani rivojlagantirishga doir ehtiyojlarni qondirish uchun zarur qadriyatlarni tanlab olish); informatsion (akmeologik motivatsiyani rivojlantirishga doir qadriyatlarning xilma-xilligidan xabardor bo'lish); baholovchi (ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlar o'rtasida o'zaro aloqadorlikni hosil qilish); texnologik (ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantirish yo'llari, metod va vositalarini aniqlashtirish); integrativ (pedagogik jarayonning ijtimoiy ahamiyatli qadriyatlari va ta'lim oluvchilarning shaxsiy talablarini o'zaro uyg'unlashtirish) [4].

Mazkur funksiyalarni amalga oshirish nafaqat ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantirish, balki har bir oliy harbiy ta'lim kursanti shaxsida ularni qaror toptirish yo'llarini izlab topishga imkon beradi. Demak, insoniyat foyda bilan birga qadrga ham ko'proq e'tibor berishi lozimligini asta-sekin anglab olmoqda. Lekin bu jarayon nihoyatda sekin amalga oshmayaptimi? Harbiy qurollarning yangi nusxalarini, ularni olib uchadigan raketa va samolyotlarning yangilarini ko'z-ko'z qilishga, ularni sotib, millionlab foyda olayotgan mamlakatlarning yutuqlariga mahliyo bo'layotgan insoniyat imkoniyatlarni qo'ldan boy berayotgani yo'qmi? Bu muammolar ham ijtimoiy hodisa va jarayonlarga aksiologik yondashishning mohiyati, amaliy ahamiyati va qadrini yanada kengroq izohlab berishni, bu usulni ommaviylashtirish zaruriyatini vujudga keltiradi. Bugungi kunda har bir xalq oldida qadriyatlarni asrab-avaylash, ularga yangicha munosabatni shakllantirish va bu asosida ularning yashovchanligini shakllantirish kerakligi kelib chiqmoqda.

Ijtimoiy borliqda yuz bergan o'zgarishlar bo'layotgan voqea va hodisalar, tushunchalarni tadqiqot obyektiga aylanishiga sabab bo'ladi. Ijtimoiy borliqdagi o'zgarishlar va ularni anglash jarayonlari bir-biriga bog'liq hodisalar sifatida yangi tushunchalarni tadqiqot obyektiga aylantiradi. Xususan, "Qadr", "qadrlash", "qadr-qimmat", "qadrrshunoslik", "qadriyat" tushunchalarining tadqiqotlar obyektiga aylanganini ana shunday ehtiyojlar bilan izohlash mumkin. Har bir qadriyatning negizida, mohiyati va ahamiyatida tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotga ta'sir etish imkoniyatlari yotadi. Yangi qadriyatlarning yuzaga kelishi esa insonning obyektiv olam, ma'naviyat borasidagi bilimlari vorislik asosida davom etayotganining ifodasidir [5].

Tadqiqotchi olim T. Parsonsning "Ijtimoiy harakatlarning tuzilishi haqida" deb nomlangan asarida qadriyat va qadriyatga yo'nalganlik tushunchalari o'rtasidagi aloqadorlik ajratib ko'rsatilgan. Ya'ni, sotsium madaniyatida etalonlarga intilishning namoyon bo'lishi asosida jamiyatning funksional ehtiyojlari yuzaga chiqadi. Qadriyatga yo'nalganlik shuningdek, o'z ichiga individning hayotiy tajribalari va orzu-armonlarini ham qamrab oladi. Ana shu sababli qadriyatga yo'nalganlik o'ziga xos psixologik tavsifga ega bo'lib, shaxs tuzilishining barcha komponentlari va yaxlit tizimini aks ettiradi. Pedagogik aksiologiyaga doir adabiyotlarda "qadriyatli ustanovka" tushunchasi ham uchraydi. Garchi ko'pchilik mualliflar "qadriyatli yo'nalganlik" va "qadriyatli ustanovka" tushunchalarini sinonim sifatida qo'llashsa ham, birinchilardan bo'lib M.Rokich ular orasidagi farqni alohida ajratib ko'rsatgan. Amerikalik olimning fikricha, ustanovkani ma'lum bir obyekt (konkret yoki abstrakt, shaxsiy yoki ijtimoiy) ga yoki vaziyatga nisbatan subyekt munosabatida aks etuvchi uzoq vaqt davomida shakllangan bir qancha ishonch, e'tiqodlar majmuyi deb qarash mumkin [6].

Demak, yo'nalganlik shaxsning jamiyatdagi me'yorlar bilan inson ehtiyojlari uyg'unlashuvi aks etsa, qadriyatli ustanovkada shaxsning amaliy faoliyatda mazkur munosabatlari tizimini ro'yobga chiqarishga tayyorligi aks etadi.

Aksiologik yondashuvning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilar belgilandi.

Shaxsda qadriyatlar tizimini shakllantirishni talab etuvchi ijtimoiy va shaxsiy omillarni integratsiyalash tamoyili. Mazkur tamoyil kursantlarda milliy qadriyatlarni asrab-avaylashda ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, ular o'rtasidagi yaxlitlikni ta'minlashni talab etadi.

Ijtimoiy faollik tamoyili. Mazkur tamoyil kursantlarda milliy harbiy merosni asrab-avaylash uchun muhim va zarur ahamiyatga ega bo'lib, jamiyatda, shu jumladan, harbiy faoliyatida sodir bo'layotgan obyektiv o'zgarishlar bilan bog'liqlik oliy harbiy ta'lim kursantlarining ijtimoiy faolligini rivojlantirishni talab etadi. Kursantlarda milliy harbiy merosni asrab-avaylashga doir bilimlarini takomillashtirishda ulardagi aksiologik ong va bahoning to'g'ri yo'naltirilganligini bilish lozim.

Aksiologik ong ijtimoiy ongning maxsus shakli bo'lib, qadrlash tuyg'usi asosida olam, voqelik va hayotni o'ziga xos tarzda aks ettiradi. Zero, insonda olam, tabiat, jamiyat va o'zga odamlarni, hayot va boshqalarni qadrlash tuyg'usi bor. Bu tuyg'u ularning qadrini anglab olish, qadriyatni idrok qilish, uning ahamiyatini his qilish kabi insoniy xususiyatlar bilan uyg'unlashib ketgan. Odam zoti olam hodisalariga nafaqat baho beradi, balki ularga qadr va qadrlash nuqtayi nazardan ham qaraydi. Insoniy qadrlash tuyg'usi kishining narsa-hodisalarni oddiy baholashdangina iborat emas, balki qadriyatli yondashuv asosida shakllanadigan serqirra ma'naviy xususiyatdir. Shu ma'noda, u inson zotining eng botiniy ma'naviy xislatlaridan biridir. Qadriyatlarga va qadrlash tuyg'usiga asoslangan aksiologik qarashlar ilmiy jihatdan asoslangan, nazariy tahlil qilingan, muayyan prinsip asosida to'plangan bilimlar sistemasini ifodalaydi. Ular qadriyatlar sohasida olib borilgan tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar, bu boradagi nazariyalar, kitob va risolalarda o'z aksini topadi. Tugallangan, ozmi-ko'pmi mukammal, izchil bayon qilingan va qadriyatlar tuyg'usidagi sistemaga ega bo'lgan aksiologik qarashlar majmuasi – qadriyatlar nazariyasi, deb yuritiladi. Aksiologik qarashlar tarixida qadriyatlar, ularning shakllari va amal qilish xususiyatlari to'g'risida bir qator nazariya va aksiologik konsepsiyalarni uchratish mumkin. Milliy harbiy merosni asrab-avaylashga xizmat qiluvchi aksiologik ong, o'z navbatida, aksiologik hissiyot, aksiologik idrok, qadrlash tuyg'usi, aksiologik kechinmalar, qadriyat mazmunini ifodalaydigan tushuncha, xulosa va tafakkur bilan uzviy bog'liqdir. Kimdadir aksiologik idrok va qadrlash tuyg'usi boshqalardan ko'ra kuchliroq namoyon bo'lishi, uning qalbida qadrlash tuyg'usi bilan bog'liq hissiyot ko'proq "g'alayon" qilishi mumkin. Bunday kishida muayyan qadriyatni qadrlash bilan bog'liq mas'uliyat va unga asoslangan faoliyat ham boshqalarga qaraganda yaqqolroq ko'zga tashlanib turishi tabiiy.

Shuningdek, kursantlarda milliy harbiy merosni asrab-avaylashga doir bilimlarni takomillashtirishda kognitiv tamoyili muhim ahamiyatga ega bo'lib, aksiologik bilishga asoslanadi. Aksiologik bilishda qadrlash tuyg'usi va aksiologik idrok muhim ahamiyat kasb etadi. Qadrlash tuyg'usi aksiologik ongning eng asosiy komponentlaridan biridir. U tabiiy va ijtimoiy hodisalarning qadrini anglash, zavq olish, lazzatlanish, mas'uliyat hissini sezish va boshqalarda namoyon bo'ladi. Olam va odam o'z ahamiyati bilan qadrlidir. Olamdagi narsalar va predmetlar, hodisa va jarayonlar odamlar uchun qadrlash tuyg'usini uyg'otuvchi asosdir.

Kursantlarning harbiy nuqtayi nazardan dunyoqarashining aksiologik shakli qadriyatli yondashuv, aksiologik munosabat, aksiologik baholash kabilarni qamrab oladi. Umumiy dunyoqarash sistemasiga aksiologik dunyoqarash elementlari qo'shilishi bilan ijtimoiy subyektlarning voqelikka munosabatida qadrlash tuyg'usi, qadriyatli munosabat va aksiologik baho yaqqol ko'zga tashlana boshlaydi. Bunda aksiologik prinsiplar kishilarning voqelikka munosabatlarini, bir-birlariga nisbatan o'zaro aloqalarini tartibga soluvchi ma'naviy mezonlar sifatida namoyon bo'ladi. Ular kishilarning faoliyatlarini amalga oshirishdagi manfaat va maqsadlarida ham ko'zga tashlanadi. Biror bir yo'nalishga qaratilgan qadrlash tuyg'usi va bu asosdagi bilimlar, intilish, maqsad hamda manfaatlar kishilarning amaliy faoliyati uchun ma'naviy boshqaruvchanlik (pegulyatorlik) vazifasini ham bajaradi. Albatta, bunda qadriyatlar bilan bog'liq omillardan tashqari boshqa sabablar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo, kishilarni birlashtirib, muayyan maqsadga intilishdagi umumiy faoliyatda omilkor bo'lishni ta'minlaydigan omillar orasida qadriyatlar omili yetakchi o'rinni egallashi mumkin. Masalan, hozirgi davrda O'zbekistonning mustaqilligi hamda uni yanada mustahkamlash vazifalari jamiyatimizda barqarorlikni ta'minlash, demokratik tamoyillarga asoslangan hayot tarzini shakllantirish jarayonlarida milliy qadriyatlar omili katta ahamiyat kasb etmoqda.



Aksiologik munosabat faqat yakka, alohida shaxsgagina tegishli hodisa emas. Balki u ijtimoiy guruh, qatlam, millat, davlat, jamiyatga ham tegishli bo'lishi mumkin. Ushbu ma'noda aksiologik yondashuv va qadriyatli munosabatning individual va ijtimoiy namoyon bo'lish darajalarini alohida xususiy va umumiy shakllarini ko'rsatish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, kursantlarda milliy merosni asrab-avaylashga doir bilimlarini takomillashtirishda aksiologik yondashuv yuqori samaradorlikka ega. Chunki milliy harbiy merosni asrab-avaylash aksiologik munosabat va baho asosida shakllanadi. Bo'lajak ofitserlar o'zining kasbiy faoliyatida qadr va qimmatlilikni anglasa, unda asrab-avaylash uchun motiv shakllanadi. Shu jumladan, aksiologik yondashuv asosida oliy harbiy ta'lim muassasasida ta'lim olayotgan kursantlarda fuqarolik kompetensiyasini takomillashtirishda milliy harbiy qadriyatlarning ahamiyati muhim o'rin tutadi.

#### Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 11-sentyabrdagi 158-sonli "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi farmoni: <https://lex.uz/docs/6600413>
2. Зинченко В.П. Человек развивающийся. Очерки российской психологии. – М.: Тривола, 1994.
3. Ходжаев Б. Педагогик аксиология. – Т.: Fan va texnologiya, 2012.
4. Яковлев Е. В. Реализация аксиологического подхода в педагогическом исследовании // Вестник ЮУрГУ. Серия: Образование. Педагогические науки. – 2012. – № 4(263). – С. 26-29. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural, and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 10/2 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 292 w October 2022 www.oriens.uz
5. <https://zenodo.org/records/7550575>
6. Rokeach M. The role of values in public opinion research // The Public Opinion Quarterly. – Vol. 32. – № 4. – P. 547-559.

## FARZAND TA'LIM-TARBIYASIDA DUNYOVIIY VA DINIY BILIMLAR UYG'UNLIGINING AHAMIYATI

Dildora Mirakbarova

*Toshkent davlat agrar universiteti dotsent v.v.b.  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya.** *Maqolada dunyoviy va diniy bilimlar uyg'unligi masalasi yoritilgan bo'lib, insoniyat paydo bo'lishidan bugungi kunga qadar bo'lgan bilimlar, ilmni avlodlardan avlodga meros qoldirish, ularni boyitish, yaxshilik yo'lida ishlatish hhaqida mulohazalar bildirilgan. Niholdek nozik farzandga chiroyli ta'lim-tarbiya berish, asosan ota-ona, ustozlarning insoniy mas'uliyati ekanligi ta'kidlanib, diniy va dunyoviy bilimlar uyg'un olib borilgandagina komil farzand voyaga yetishi, uni xalq xizmatiga safarbar qilish mumkinligi uqtirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *oila, farzand, ilm, ta'lim-tarbiya, diniylik, dunyoviylik.*

Xalqimiz qadim-qadimdan bola tarbiyasida umuminsoniy, milliy va diniy tajribalarni uyg'unlikda olib borib, davlatimiz, jamiyatimiz, qolaversa, dunyo taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan olimlar, allomalarni yetishtirib chiqargan va yetishtirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

nutqida “Ta’lim va tarbiya sohasidagi tub islohotlarni yuksak bosqichga ko’tarish, mamlakatimizning taqdiri va kelajagi uchun mas’uliyatni o’z zimmasiga olishga qodir bo’lgan yangi avlod kadrlarini voyaga yetkazishga qaratilgan ishlarni izchil davom ettirish hammamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas burchimiz” [2; 19] deb, bolaning yorqin kelajagi nafaqat ota-ona, ta’lim muassasasi xodimlari, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari vakillari, balki butun jamiyatning burchi ekanligini ta’kidlab o’tgan.

O’zbekiston Respublikasining qomusi bo’lmish Konstitutsiyaning 64-moddasida “Ota-onalar o’z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar” [7] deb, bola huquqlari qonuniy tartibda mustahkamlangan. Shuningdek, davlatimiz ushbu sohaga oid ko’plab qonun va qonunosti hujjatlar qabul qilgan, xalqaro hujjatlarga qo’shilgan, ratifikatsiya qilgan.

Musavvir, ya’ni maxluqotlarning suratini shakllantiruvchi, har bir narsaga o’ziga xos surat beruvchi Alloh subhanahu va taolo Odamni tuproqdan yaratdi va unga O’zi yaratgan ruhdan jon pufladi. Uni O’zining yerdagi xalifasi etib tayinladi. Islom dinining to qiyomatgacha o’zgarmas muqaddas kitobi Qur’oni Karimning Baqara surasi 30-oyatida: “Eslang, (ey Muhammad), Parvardigoringiz farishtalarga “Men Yerda (Odamni) xalifa qilmoqchiman”, deganida ular aytdilar: “U Yerda buzg’unchilik qiladigan, qonlar to’kadigan kimsani (xalifa) qilasanmi? Holbuki, biz hamd-u sano aytish bilan Seni ulug’laymiz va Sening nomingni mudom pok tutamiz”. (Alloh) aytdi: “Men sizlar bilmagan narsalarni bilaman!” [8:10], deb qayd etilgan. Odamning yer yuzida xalifa bo’lishining asosiy sabablaridan biri ilm olishga iste’dodining borligidir. Hozirgi kunda insoniyat tomonidan yaratilayotgan va hayotga tatbiq etilayotgan kashfiyotlar ham Odamning yaratilgan davrida berilgan qobiliyat natijasi hisoblanadi. Oddiy tuproqdan yaratilgan Odamga Alloh alohida lutfi ila ongni berdi. Ya’ni, Alloh taolo insonni yaratib, o’z holiga tashlab qo’yadi, balki unga ta’lim-tarbiya ham berdi. “Shu bilan Odamning farishtalardan ustunlik tarafi namoyon bo’ldi. U ham bo’lsa, ilm-ma’rifat edi. Inson yer yuzida buzg’unchilik qilishi va qon to’kishi ham mumkin, ilohiy ne’mat bo’lmish ilmni o’z o’rnida ishlatib, farishtalardan ustun bo’lishi ham mumkin” [6; 20].

Ma’rifatparvar jadidchilardan biri Abdulla Avloniy aytganlaridek, “Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak – tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o’rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o’sdurmakdir. Tarbiya qiluvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan, “poklik” degan davoni ustidan berub, katta qilmak lozimdur. Zeroki, “Hassinu axloqakum” amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmakka amr qilinganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo’lishining asosiy panjasi tarbiyadur...” [3; 21]

Oilada bizning ilk dunyoqarashlarimiz, olam haqidagi tushunchalarimiz shakllanadi. Ta’lim muassasalari esa ularga ilmiy tus beradi. Bolaning o’zini tutishi, xatti-harakatlari, katta va kichiklar bilan qilayotgan muomalasi u o’sib ulg’ayayotgan oilaning ma’naviy muhiti qay darajadiligini belgilaydi. Dono xalqimizda “Qush uyasida ko’rganini qiladi” [4:49] degan naql bor. Dunyoga kelgan, yashab ulg’aygan muhit har bir inson uchun to’g’ri, ota-onasining fikri, bergan maslahatlari esa u uchun bexatodek ko’rinadi. Lekin hamma oilalarni ham ma’naviyatli, tarbiyali deb ayta olamizmi?

Ta’lim-tarbiyaning mushtarak olib borilishiga ajdodlarimiz katta e’tibor bilan qarashgan. Buni biz ularning yozgan asarlari, qoldirgan ma’naviy meroslaridan bilib olishimiz mumkin. Markaziy Osiyodan chiqqan allomalarning asarlarida ta’lim va tarbiya uyg’unligi orqali insoniyat yuksaladigan yuksaklik, barkamollik madh etilgan. Albatta, bu talablarga o’zlari ham amal qilib, so’z isboti bilan go’zalligini keltirib o’tishgan.

Dunyoviy bilimlarni o'zlashtirish va diniy tasavvurlar bir-biriga zidmi yo bir-birini to'ldiradimi degan savol ustida ko'plab olimlar bosh qotirishgan. Olmoniyalik olim Dinard insoniyat madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan 290 nafar olimning fikrlarini o'rganib chiqqanda, ma'lum bo'lishicha 290 nafardan 20 kishigina hech qanday diniy ta'limotlarga ergashishmagan. Qolgan olimlarning esa muayyan e'tiqodlari bo'lib, Alloh borligiga iymon keltirishgan. Bundan ilm va din bir-biriga zid hodisa emas, degan xulosa kelib chiqadi. Zero, ularning ikkisi ham insoniyat taraqqiyotiga o'ziga xos hissa qo'shadi. XX asrning mashhur olimlaridan biri Pastor: "Iymon hech qanday taraqqiyotga to'sqinlik qilmaydi. Chunki har bir taraqqiyot Xudoning yaratgan narsalaridagi ajoyibotlarni ochib beradi. Agar men bugun kechagidan ko'ra ilmliroq bo'lsam, Allohga bo'lgan ishonchim ham kechagidan mustahkamroq bo'ladi" degan [5; 44].

Ma'naviyatli inson o'zida nafaqat dunyoviy bilimlarni, balki ular bilan birga diniy dunyoqarashni mushtarak shakllantira olgan shaxsdir. Ko'plab ajdodlarimizni bunga misol qilib keltirishimiz mumkin. Jumladan, zamonasining buyuk olimlari Al Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi ajdodlarimiz nafaqat dunyoviy bilimlarni egallab, kashfiyotlar qilishgan, balki diniy bilimlarni ham mukammal o'zlashtirishgan. Buyuk shoir, mutafakkir Alisher Navoiy ko'plab dunyoviy bilimlarni egallashlari, o'zga yurt tillarini o'rganishlari bilan bir qatorda dinni yaxshi bilganlar. Biz buning isbotini qilgan xayrli amallari va yaratgan ijod namunalarida ko'rishimiz mumkin. Shoirning g'azallari Allohga atalgan otashin ishq, uning visoliga yetishish orzusi bilan yo'g'rilgan bo'lsa, qilgan saxiy ishlari, ehsonlari, barcha insonlarga birdek muomalada bo'lishlari, Vatan va xalqning farovon ma'naviy hayoti uchun qilgan sa'y-harakatlari iymon nafaqat tilda, balki dilda ham bo'lishi kerakligiga yaqqol misoldir. Albatta insonning qanday hayot kechirishi, uni nimalarga sarf etishi o'ziga bog'liq. Lekin uni to'g'ri yo'lga boshlash, hayot mazmuni aslida nima ekanligini tushuntirish ko'p jihatdan ota-onaning qo'lidadir. Huddi shuningdek, mutafakkir shoir Mir Alisher Navoiy va boshqa allomalarimizning ham ota-onalari bola tarbiyasida qanchalik e'tiborli bo'lganliklari, ta'limga, farzand kamoliga g'oyatda ma'suliyat bilan qaraganliklarini Markaziy Osiyo allomalarining hozirga qadar insonlarga, nafaqat Sharqda, balki G'arb davlatlarida ham ibrat qilib ko'rsatilish darajasiga yetganliklarida namoyondir. Zero, tarbiyaga asosni ota-ona qo'yadi va har bir bolaning ilk ustozini uning ota-onasidir.

Chiroyli, namunali tarbiyani diniy ta'limotlarsiz, ularda belgilangan komillik mezonlarsiz tasavvur qilish qiyin. Zero, har bir din, shu jumladan, Islom dini ham odamlarda insoniy fazilatlarini shakllantirishga, mehr-muruvvatga, axloq-odob qoidalariga rioya qilishga targ'ib etadi. Islom dini o'z ichiga nafaqat diniy urf-odatlariga rioya qilish orqali farzandni tarbiyalashni, balki dunyoviy bilimlarni mukammal o'zlashtirishni ham targ'ib qiladi.

Ilm olish fazlini biz hadislardan o'rganishimiz mumkin. Ikki olam sarvari bo'lmish payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallam: "Kingaki Alloh taolo yaxshilikni ravo ko'rgaydir, uni din ilmidan bahramand qilg'aydir, ilmga ilm olmoq yo'li birlan erishilg'aydir", – deganlar [1:32]. Qur'on oyatlari va hadislarini biz tor doirada tushunishimiz ularning mohiyatini notog'ri anglashga olib keladi. Ushbu hadisdan nafaqat diniy bilimlarni, balki shu bilan birga dunyoviy bilimlarni ham o'rganish, ularni chuqur anglab o'zlashtira olish qobiliyatimiz Alloh taoloning bizga qilgan yaxshiligidan, ne'matlaridan, deb tushunmog'imiz lozim.

Dinni bir taraflama, noto'g'ri talqin qiluvchi insonlarga diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy bilimlarni o'rganishni keraksiz, dinga zid, deb biladi. Zero, Alloh taolo o'zining Kalomida mo'min-musulmon bandalariga boshqa din vakillarining ham ilohiy kitoblarini o'rganinglar, deb ruxsat bergani bejiz emas. Bunga sabab, taqqoslash,



o'rganish orqali inson dunyoqarashini boyitib, chuqur tafakkur qilish qobiliyati shakllanadi. Boshqa bir hadisda, ilmning susaymog'i qiyomat alomatlaridan biri ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Islom dinida ilm olish ibodat qilish darajasiga ko'tarilgan.

Bugungi kunda yangi O'zbekistonimizning ta'lim muassasalarida ilm-fanning yangidan yangi yutuqlari haqidagi fanlar bilan bir qatorda diniy ta'limotlar va ularning mohiyati haqidagi fanlar, jumladan, "Dinshunoslik", "Din tarixi", "Ma'naviyat va din" kabilar o'quvchi va talabalarga dars sifatida o'tilmoqda. Bundan tashqari, o'z sohasining yetuk mutaxassislariga aylangan, nafaqat bolaning bilimiga, balki tarbiyasiga ham katta e'tibor bilan qaraydigan pedagoglar o'z darslari doirasida, mavzuga oid hadislar, rivoyatlar so'zlab berish orqali dars jarayonining samarasini oshirmoqdalar. Lekin, afsuski, ayrim o'qituvchilar diniy ma'lumotlarga to'liq ega bo'lmasdan, axborot manbalarini tekshirib ko'rmasdan olgan ma'lumotlarini yosh avlodga yetkazadilar. Bu nafaqat o'sha o'quvchi yoki talaba yoshlar uchun, balki jamiyat uchun ham xavfli holat. Islom dinida o'z kasbiga loqaydlarcha munosabat ham omonatga xiyonat, deb baholangan.

Xulosa o'rnida, o'qituvchi tomonidan berilgan bilimlar, albatta, oilada mustahkamlanmog'i lozim. Buning uchun ota-ona ham kerakli ilmga ega bo'lishi, bilmaganini shu soha vakillaridan so'rab, kitoblardan bilib olishi, ya'ni farzandi bilan bir qatorda o'z ustida ishlashi lozim. Bugungi kunda, ta'kidlaganimizdek, yurtboshimiz tomonidan kitobxonlikka katta e'tibor berilmoqda. Yoshlikda olingan bilim kelajak uchun poydevor bo'ladi. Demak, biz farzandlarimizga bilimni, kitobga bo'lgan hurmatni, ilmi insonning ikki dunyoda ham qadri baland bo'lishini tushuntirishimiz, ongiga singdirishimiz lozim. Bunda bizga ham axloqiy, ham ilmiy, ham diniy bilimlarni jamlagan adabiyotlar yordam beradi. Masalan, bugungi kunda chop etilayotgan "Qobil va Hobil", "Bola tarbiyasi", "Bola odobi bilan aziz" va shu kabi kichik avlod vakillariga mo'ljallangan adabiyotlar kelajagimizga zamin yaratadi. Yildan yilga bola yosh xususiyatlariga qarab tanlangan kitoblar murakkablashib boradi. Ushbu asarlar orqali, diniy e'tiqodidan qat'i nazar, bolalarda mehr-muhabbat, o'zaro hurmat, andisha, mas'uliyat kabi sifatlar kichikligidan shakllantirilsa, kelajakda afsus chekadigan holatlarning oldi olinadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ал-жомийъ ас-саҳиҳ (Ишонарли тўплам). 1-жилд. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1997.
2. Yoshlarga donolar o'giti. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2018.
3. Saodat yo'li. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2016.
4. Tohir Malik. Tafakkur gulshani ichra. 1-kitob. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2017.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Iymon. – Toshkent: HILOL-NASHR, 2018.
6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi. 1-kitob. – Toshkent: HILOL-NASHR, 2017.
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 1-may. <https://lex.uz/docs/6445145>.
8. Куръони Карим. Таржима ва изоҳлар муаллифи Шайх Алоуддин Мансур. – Тошкент: Чўлпон, 1992.

# ЗНАЧИМОСТЬ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОГО ПОДХОДА В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ КОММУНИКАТИВНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ

Раушан Медетова  
заведующая отделом УзНИИПН, д.п.н.,  
старший научный сотрудник

Машхурахон Азимова  
доцент государственного образовательного учреждения  
«Ходжендский государственный университет имени  
академика Бабаджана Гафурова» кандидат  
педагогических наук, Ходженд, Таджикистан

**Аннотация.** В статье раскрыта роль междисциплинарного подхода в совершенствовании коммуникативной толерантности у студентов. Раскрыты два междисциплинарных подхода. Дана характеристика понятию «междисциплинарные связи». Приведены мысли учёных об использовании междисциплинарного подхода в совершенствовании коммуникативной толерантности у студентов.

**Ключевые слова:** междисциплинарный подход, роль, совершенствование, толерантность, педагогика, преподаватель, студент, обучение, значение.

Междисциплинарный подход представляет собой взаимообусловленную систему интеграции знаний в разных областях науки, где каждая дисциплина имеет свой объект изучения и инструментарий, при этом у многих они совпадают и взаимосвязаны. Вот почему выделение ключевых, совпадающих элементов учебных дисциплин позволяет студентам усвоить и применять базу знаний.

Научная база и система обучения представлены взаимосвязанным комплексом дисциплин, среди которых принято выделять: фундаментальные науки – область познания, подразумевающую теоретические и экспериментальные научные исследования основополагающих явлений и поиска закономерностей; таксономические – дисциплины конкретно-предметной организации. Например, в дисциплинарном комплексе педагогической науки к фундаментальным могут быть отнесены теория педагогики, история педагогики и педагогическое мастерство, к таксономическим – педагогическая квалиметрия.

В междисциплинарности общеприняты два подхода. В основе первого лежит взаимосвязь двух и более дисциплин со смежной терминологией, системой исследования, объектами этих исследований и т.д. Такая совокупность помогает более широко и основательно изучить проблему исследования, создает обширное поле для научных проектов, а система знаний для подготовки будущих учителей приобретает современно-ориентированный дисциплинарный подход. Во втором случае междисциплинарный подход позволяет расширить области знаний, которые не могут полноценно исследоваться уже существующими научными

дисциплинами. Так на стыке двух дисциплин возникает новая дисциплина. И, безусловно, междисциплинарность при первом подходе способствует решению научных проблем, во втором – углублению знаний, когда предмет исследования слишком сложен, а поставленная научная проблема масштабна для одной конкретной дисциплины.

При этом исследователь междисциплинарного подхода Т.В.Крепс [4] отмечает как его существенные преимущества, так и проблемы, возникающие при чрезмерном использовании. Жан Пиаже применяет междисциплинарность, описывая теорию когнитивного развития с помощью «методов, характерных для одной дисциплины в других областях знания, которые порождают новый междисциплинарный инструментарий» [5].

Заимствования идей и навыков из одной дисциплины в другую являются надёжным источником и хорошим примером для получения студентом знаний, которые выстраивают междисциплинарные связи.

Междисциплинарные связи – это согласованность учебных программ, детерминированная дидактическими целями и содержанием.

При комплексной системе обучения выявляются взаимосвязанные элементы в темах, разделах, применимы общие термины и системы исследования, что, в свою очередь, и является междисциплинарным подходом при обучении студентов.

Междисциплинарные связи по времени внедрения определяются как предшествующие, параллельные, повторяющиеся, следующие и перспективные.

Одним из главных преимуществ остается возможность переноса знаний, умений и навыков из одной сферы науки и профессиональной деятельности в другую, поэтому связи определяются как теоретические, логические, философские, семиотические, практические и т.д.

Будущий учитель обязан уметь применять и использовать комплекс полученных знаний, умений и навыков из усвоенных дисциплин в профессиональной деятельности. Междисциплинарный подход направлен на связь дисциплин, когда сглаживаются противоречия в усвоении знаний, идей, методов между учебными дисциплинами и происходит комплексное применение теории и практики, полученных на основе изучения учебных дисциплин, в профессиональной деятельности.

Рассматривая междисциплинарный подход как особую базу для совершенствования толерантности у студентов, мы исходили из того, что толерантность стимулирует человеческую коммуникацию и расширяет возможности для достижения согласия в обществе. В связи с этим на первый план в образовательном процессе высшего образовательного учреждения выдвигается потребность совершенствования коммуникативной толерантности у студентов, способствующих формированию у них целостной картины окружающего мира, а также духовно-нравственных ценностей в их национальном и общечеловеческом понимании.

Коммуникативная толерантность, проявляющаяся в отношении студента к окружающим его людям, является разновидностью толерантности. Процесс формирования коммуникативной толерантности происходит через присвоение студентом определённых идей, ценностей, формирования правильного отношения к явлениям действительности. Этот процесс в наибольшей степени формируется во время аудиторных занятий, поскольку учебный процесс в высшей школе подразумевает развитие когнитивных,



социальных, эмоциональных и культурных характеристик личности студента, в том числе освоение конструктивных моделей поведения, которые обеспечат конкурентоспособность и успешность будущей профессиональной деятельности выпускника высшего образовательного учреждения.

Вот почему одним из социально и профессионально значимых качеств личности, востребованных сегодня в нашем обществе, является межкультурная коммуникативная толерантность. Важность формирования у студентов данного качества обусловлена не только процессами глобализации и активизации профессиональной мобильности в современном мире, но и необходимостью создания условий комфортного сосуществования обучающихся в полиязычной образовательной среде, задачей снижения конфликтов и предупреждения столкновения представителей разных культур – носителей различных систем ценностей и норм. На наш взгляд, возрастает значимость межкультурной коммуникативной толерантности в становлении личности студента.

В процессе совершенствования межкультурной толерантности у студентов важно сделать акцент на ценностно-смысловые установки совершенствования коммуникативных навыков и соответствующих мировоззренческих ориентиров, главным стимулом создания которых явился междисциплинарный подход. Такой инструментальный показал существенно выросший уровень межличностной и межкультурной коммуникативной компетенции студентов как одной из важнейших форм развития общества.

Сегодня проблеме толерантности учёные уделяют повышенное внимание, она является составляющей межкультурного образования и анализируется с философской, социальной, психологической и педагогической позиции. Студенчество занимает особое положение в обществе, так как обладает высоким уровнем профессиональной и личностной культуры. Исследователи доказали, что каждый возрастной период характеризуется особенностями развития толерантности, но оптимальный возрастной этап для совершенствования данного качества личности – это юношеский возраст. Поскольку период учёбы в высшем образовательном учреждении характерен противоречием между потребностью студента в общении и недостаточно сформированной осознанной регуляцией поведения, приверженностью стереотипам общения.

Кроме того, в высшем образовательном учреждении студенты сталкиваются с людьми другой веры и культуры. Отсюда возникает необходимость в формировании навыков толерантного взаимодействия, коммуникативной установки, способствующей преобразованию толерантности в качество личности. Поэтому совершенствование методов работы со студентами по усвоению и осознанию принципов толерантности чрезвычайно актуально в студенческом возрасте.

Как отмечает Г.Л.Бардиер, толерантность с давних лет трактовали как принцип взаимоотношений между представителями различных конфессий, духовной и светской власти. Толерантность являлась одним из проявлений милосердия, бережного отношения к «заблудшему» сознанию [2]. Феномен толерантности составляет предмет обширных междисциплинарных научных исследований, в которых толерантность означает отказ от доминирования и насилия, признание многообразия человеческой культуры, способности к сопротивлению (негативным воздействиям окружающей среды и пр.). Такие научные исследования основаны на междисциплинарном подходе, поскольку толерантность следует рассматривать на стыке ряда учебных дисциплин.

По мнению Г.Ш.Ариповой, толерантность – личностное качество, включающее совокупность ценностных ориентаций, показатель социальной рефлексии, коммуникативного уровня, способности находить решения в конфликтных ситуациях и адаптироваться в социуме. Толерантность – неотъемлемая характеристика профессионализма и зрелости личности, которая развивается в процессе социализации, воспитания и самовоспитания [1].

Толерантные отношения возникают при бескорыстном принятии других, независимо от их социального и культурного уровня. Толерантность в трактовке В.М.Золотухина – социальная характеристика личности, состоящая из устойчивости, способности к сотрудничеству в сфере межличностного и межгруппового взаимодействия, совокупности индивидуальных черт и системы позитивных установок [6].

А.П.Бекетова, Т.В.Куприна и А.Петрикова в содержании толерантности выделяет три аспекта: устойчивость, терпимость, допустимость [2]. По мнению учёных, важное качество толерантной личности связано с его психологической устойчивостью, которая обеспечивает равновесие утверждения уникальности студента и формирования идентичности, поскольку данному качеству личности характерна физиологическая, психологическая и социальная устойчивость, основанная на свободе вероисповедания, развитии и сохранении культуры и традиций, взаимоуважении, равноправии и солидарности.

В педагогической науке учёными выделены следующие компоненты толерантности: волевой, рефлексивный, когнитивный и поведенческий. А профессор Н.Г.Камилова выделяет психологические компоненты толерантности: эмоциональная устойчивость, средний уровень тревожности, умеренный уровень психической ригидности, низкий уровень агрессивности, высокий уровень общительности и эмпатии, доверие, принятие других и себя [3].

Значит, толерантность – активная нравственная позиция, готовность к терпимости для успешного взаимодействия с представителями иной религиозной, культурной и национальной среды. Совершенствование толерантности у студентов на основе междисциплинарного подхода позволяет многоаспектно рассматривать это качество личности студента.

Исследование, проведённое нами, позволило обнаружить различия между группами по таким составляющим коммуникативной толерантности, как стремление перевоспитать друг друга, не умение прощать ошибки окружающих, не желание приспособливаться к характеру окружающих людей. Эти различия закономерны и естественны для данной категории личностей. Вот почему формированию толерантности способствуют различные дисциплины учебного плана, например, «Общая педагогика».

Наилучший способ установления толерантных отношений – это совместная деятельность преподавателей и студентов. Участие в общественной жизни высшего образовательного учреждения объединяет студентов: деловые и ролевые игры, дискуссии, КВНы, студенческие советы, творческие кружки, театры-студии, хоровые группы. Среди форм работы со студентами следует выделить посещение различных музеев и выставок, тренинги, тематические занятия, на которых студентам предоставляется возможность в процессе общения оценить свою индивидуальность, навыки общения, скорректировать их.

Основываясь на сказанном выше, можно сделать вывод о том, что высшее педагогическое образование влияет на комплексное формирование личности студентов. В процессе обучения формируется эмпатия, социальная и

этническая толерантность, в составе которых коммуникативная толерантность представляет собой важный элемент профессиональной подготовки студентов.

#### Использованная литература:

1. Aripova G.Sh. Ajdodlar merosida tolerantlik g'oyalari // Pedagogika. – T., 2023. – № 3. – В. 316-319.
2. Бекетова А.П., Куприна Т.В., Петрикова А. Развитие межкультурной коммуникативной толерантности студентов в полиязычной образовательной среде вуза // Образование и наука. – М., 2018. – № 20(2). – С. 108-124.
3. Камилова Н.Г., Анварова Н. Психологические детерминанты буллинг-поведения среди младших школьников и подростков // Pedagogika. – T., 2023. – № 6. – С. 3-7.
4. Крепс Т.В. Междисциплинарный подход в исследованиях и преподавании: преимущества и проблемы применения // Научный вестник Южного института менеджмента, 2019. – № 1. – С. 115-119.
5. <https://4brain.ru/blog/>
6. <https://www.google.com/search?q>

## GERMANIYADA TA'LIM OLGAN TURKISTON YOSHLARIDAN TOHIR SHOKIRQORIYEV (CHIG'ATOY) TARIXIGA NAZAR

**Abduvali Yo'ldashev**  
*O'zFA Tarix instituti kichik ilmiy xodimi*  
*tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XX asrning 20-yillarida Germaniyada ta'lim olgan turkistonlik yoshlardan biri Tohir Chig'atoy hayot yo'li va ilmiy faoliyati tahlil etilgan. Undagi ma'lumotlar bir qator arxiv hujjatlari, milliy matbuotdagi maqolalar va ilmiy adabiyotlarga asoslangan. Maqolada ikki imperiya davrida yashab Turkiston jadidlari ta'limini olgan Tohir Chig'atoyning hayot yo'li jadidchilik harakati bilan hamohang ekanligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, "Ko'mak" tashkiloti, Germaniya, iqtisod, Yosh Turkiston, Anqara, Chig'atoy.

XX asrning 20-yillarida Turkiston ziyolilari va hukumatdagi milliy rahbarlarning harakati bilan amalga oshirilgan yoshlarni xorijga yuborish va milliy kadrlar tayyorlash yo'lidagi sa'y-harakatlari natijasida 70 dan ortiq yoshlar Germaniyaga borib ta'lim oldi. Ammo XX asrning 20-yillilari ikkinchi yarmidan sovet hukumatining ushbu yoshlarning xorijiy ta'limiga qarshi hamda o'lkada olib borgan siyosati natijasida ayrim yoshlar vatanga qaytmay xorijda yashab qolishga majbur bo'ldilar. Bu ham sovet hukumatining qaysidir ma'nodagi qatag'oni deyish mumkin. Chunki vatandan olisda yor-birodarlari, vatandoshlari, yaqinlaridan ayro taqdirni tanlashga aynan ana shu tuzum oqibati edi. Ana shu talabalar orasida ko'pchilik uchun Tohir Chig'atoy, Tohir Shokirzoda nomi bilan tanilgan Tohir Shokirqoriyev ham bor edi.

U 1902-yilda 27-martda Toshkentning eski shahar qismida Beshyog'och dahasi Zarifboy mahallasida tug'ilgan. Shokir xo'ja va Hamroxonim oilasida tug'ilgan Tohir



Shokirzodaning bobosi Roziqboy xoji Toshkentning taniqli savdogar boylaridan bo'lgan. Uning nomi bilan Toshkentning eski shahar qismidagi bir mahalla atalgan. 1917-yilgacha savdo ishlari bilan shug'ullangan. Sovet hokimiyati yillarida boy xo'jaliklarga nisbatan olib borilgan zo'rvonliklar natijasida ularning ham savdo ishlariga putur yetadi. Hamroxonim 1927-yilda vafot etgan. Sovet hukumatining siyosiy tazyiqlaridan Shokir qori dastlab Afg'onistonga ketadi. 1935-yilda xajga borib, so'ng 1936-yilda Istanbulga keladi. Shu yerda yashab, 1950-yilda vafot etadi [1]. U inqilobdan keyingi yillarni qamoqda, qochqinlikda o'tkazdi. Turkistondagi boyliklari sovet hukumati tomonidan musodara etiladi.

Tohir Shokir dastlab yangi usul maktabida, so'ng rus-tuzem maktabida ta'lim olgach, Ufaga borib bir yil "Madrasayi Oliyada" tahsil ko'radi. Oktyabr voqealaridan keyin Tohir Bokuga boradi va 1921-yilga qadar Ozarbayjon o'qituvchilar texnikumida tahsil olib, o'rta ta'lim guvohnomasini oladi [2; 309-310].

1922-yilda Toshkentda tuzilgan jadidlar va iqtidorli yoshlarning "Ko'mak" uyushmasiga a'zo bo'ldi. Jadid ziyolilaridan biri Salimxon Tillaxonov uni uyushma ta'sisshilaridan biri deb ma'lumot beradi. Salimxon Tillaxonov "Ko'mak" uyushmasining tashabbuschilari Saidali Usmonxo'ja, Ibrohim Orifxonov, Kamol Dodaxo'ja o'g'li, Rizqi Rahimiy, Abduvohid Jahongir, To'lagan Mo'min o'g'li, Ochil Xo'ja, Ahmad Shakuriy, Tohir Shokiriy, Salimxon Tillaxonov kabi turkistonlik bir guruh yoshlardan iboratligini ta'kidlaydi [3]. Uyushmaga a'zo bo'lish bilan birga o'zi ham xorijda ta'lim olish uchun "Ko'mak"ka ariza topshirdi. Tohir Shokirzoda tomonidan to'ldirilgan so'rov qog'ozi (anketa)da u o'zi haqida quyidagi ma'lumotlarni keltirib: "Tohir Shokirzoda Eski Toshkent Beshyog'och daha Zarifboy mahallasidan, 20 yoshda, o'quvchi, avval Ozarbayjonda o'rta maktabni tamomlagan. Germaniyaga borib hakim (shifokor – A. Y.) yoki ijtimoiyotchi" [2; 309] bo'lmoqchiligini yozgan. Shuningdek, Tohir Shokirzoda "Ko'mak" uyushmasidan ikki yillik yordam so'ragan, qolgan yordamni oilasidan olishini yozgan. U ta'limni tamomlab, Turkistonga qaytib xizmat qilishini alohida ta'kidlagan.

Shunday qilib, u 1922-yilda Turkiston yoshlari bilan birga o'z ta'minotini bo'yniga olgan holda Germaniyaga o'qishga ketadi. Germaniyaga kelgan toshkentlik Tohir Shokirzoda dastlab Berlin universitetida ro'yxatdan o'tib, u yerda bir yil o'qiganidan so'ng, Haydelbergdagi Ruprext-Karls (Ruprecht-Karls) universitetining falsafa fakultetiga o'qishga kirgan. U Berlin universitetida o'z davrining mashhur olimlari psixolog, faylasuf Maks Dessoir (1867-1947), Bernard, Ditse (Dietze) kabi professorlarning ma'ruzalarini tinglaydi. Haydelberg universitetiga kelib nafaqat Germaniya, balki butun jahon ilmfaniga o'z hissasini qo'shgan dunyoning mashhur sotsiolog, tarixchi va iqtisodchisi Maks Veber ning ukasi doktor Alfred Veber hamda uning maktabi vakillari, iqtisodchilar Karl Brinkman (1885-1954), Emil Lederer (1882-1939) dan dars olgan. Bundan tashqari, professor Altmann, matematik Emil Yulius Gumbel (1891-1966), iqtisodchi, tarixchi, tarjimon Edgar Jak Salin (1892-1974) kabi professorlar ma'ruzalarini tinglagan. Ular bilan birga amaliy mashg'ulotlar olib borgan. Bir qator professorlardan huquq, falsafaga oid bilimlarni o'rgangan. Professor V. Adreasning tarix darslarida ishtirok etib, ushbu professor olimlarga ta'lim so'ngida ijtimoiy-iqtisodiyot va sotsiologiya, siyosiy nazariya, falsafa va tarix fanlaridan imtihon topshirgan [4; 8].

U 1930-yilgacha ushbu universitetning falsafa, sotsiologiya va iqtisod fakultetida o'qib, "Ko'chmanchilar iqtisodiyotining asosi: Sibir-Markaziy Osiyo ko'chmanchi xalqlari iqtisodiyotiga nazar" (Grundzuge der Nomadenwirtschaft / Betrachtung des Wirtschaftslebens der sibirish – centralasiatischen Nomadenwoelker) mavzusida doktorlik ishini yozgan. Uning tadqiqot ishini universitetdagi ustozlaridan professor Alfred Veber yuqori baholab, "bu yozgan asaring bilan bizning mamlakatda tom

ma'noda ilk etnosotsiologik tadqiqotni amalga oshirding", deb e'tirof etgan [4; 10]. Tohir Shokirzodaning ushbu tadqiqot ishi 152 sahifa, 2 xarita va 1 ta jadvaldan iborat bo'lgan [5; 20-21]. Tohir Shokirzoda o'z tadqiqotida ko'chmanchi xalqlarning Rossiya imperiyasi bosqiniga bo'lgan davrdan boshlab to sovet hokimiyati davridagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotini yoritib bergan. Unda tadqiqotchi ko'chmanchi xalqlarining turmush tarzi, urf-odatlar, oila munosabatlari, e'tiqodi va ularning hayotidagi madaniy o'zgarishlarga alohida e'tibor qaratgan. Uning bu dissertatsiyasi 1931-yil "Ko'chmanchilar iqtisodiyoti" ("Nomaden wirtschaft") nomi bilan Bryusselda nemis tilida nashr etilgan [6; 194].

Tohir Shokirzoda Germaniyadagi Turkiston talabalari ichida ham o'z o'rniga ega edi. 1925-yildan keyingi sovet hukumatining yoshlarni ortga qaytarish harakatlariga qarshi chiqdi. Ularni ta'limini yakunlashlari uchun talabalar bilan birga choralar izladi. 1929-yilda sovet hukumati bir qator o'zbek ziyolilarini "Milliy ittihad" ishida ayblab tergovga tortdi. Ularning ko'plari xorijda o'qigan turkistonlik yoshlarning ustozlari, hammaslari edi. Hattoki, ular bilan Germaniyada qishloq ho'jaligi sohasida ta'lim olgan Abdurahob Murodiy ham bor edi. 87 kishilik hib etilgan o'zbek ziyolilarining bir qismi otuvga, bir qismi qamoqqa va yana bir qismi surgunga yuborildi. Bu kabi salbiy voqealar Germaniyada o'qigan yoshlarning bir guruhini xorijda qolib ona vatani uchun kurashga undadi. Tohir Shokirzoda ham ana shu yoshlar bilan birga xorijda yashab qolishga majbur bo'ldi. Berlin va Parijda nashr etilgan "Yosh Turkiston" jurnalida faoliyat olib bordi. Xorijdagi yoshlarning faollaridan biriga aylandi.

"Milliy ittihad" ishida Munavvar qori boshchiligidagi bir guruh ziyolilar Moskvada otib tashlanadi. Bundan xabar topgan xorijdagi yoshlar va muxojir ziyolilar uni xotirlab kechalar tashkil etadilar. Yosh turkistonliklar tomonidan 1934-yil 3-fevralda Berlinda Munavvar qori Abdurashidxon o'g'liga bag'ishlangan xotira kechasi o'tkaziladi. Unda Mustaf Cho'qay, Tohir Shokirzoda va turk yoshlaridan O'rxon, Halil va Fuvadbeklar yig'ilganlarga ma'ruza qildilar. Unda Tohir Shokirzoda Turkiston yoshlarining buyuk muallimi Munavvarqorining millatga qilgan xizmatlari va tarbiyalagan avlodlari haqida ma'ruza qilib, Munavvarqorining ilmi, milliy siyosiy, ahloqiy tarbiyasini uning yo'lini, hayotini o'zlari uchun o'rnak etib olganliklarini, uning jonini tikib millatning ozodligi, hurligi yo'lidagi milliy davo merosini davom ettirajaklarini bildirgan edi. Aslida esa Turkistondan xorijga qadam qo'yayotganlarida millat oydinlarining tarbiyasini olib buyuk maqsadni dillariga jo qilgan bu yoshlar ta'lim jarayonidayoq bu maqsadni asosiy o'ringa qo'yidilar. Hattoki ularning ilmiy tadqiqoti ham o'z zamini ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ahvolidan kelib chiqib amalga oshirildi.

Germaniyada natsizmning o'rnatilishi natijasida ko'plab xorijda yashab qolgan yoshlar Turkiyaga ko'chib o'tdilar. Tohir Shokirzodaning keyingi faoliyati ham Turkiyada kechdi. U bu o'lkada Tohir Chig'atoy nomi bilan shuhrat qozondi. Anqara universitetida faoliyat olib borib 1953–1962-yillarda dotsenti va professor darajasiga erishgan. T. Chig'atoy 1971-yilga qadar Anqara universitetining ijtimoiy fanlar bo'limi mudiri lavozimida faoliyat yuritgan. Umri davomida ko'plab Turkistonga oid maqolalar yozgan. Xususan, "Yosh Turkiston" jurnalida uning "Turkistonda maktab siyosati", "Hindiston-Turkiston", "Turkistonda Rusiyaga qarshi isyonlar", "Unutilmas tarixiy vahshiylik", "Andijon qo'zg'oloni haqida", "Turkistonda 1916-yil isyoni", "Turkistondagi yerosti boyliklari", "Turkistondagi sovet matbuotiga bir qarash", "Turkistonda ochlik", "Turkistonda maorif ishlari" kabi qator maqolalar nashr etilgan.

Shuningdek, Tohir Chig'atoy ilmiy faoliyat bilan birga "Turkiston paxta xo'jaligi" (Berlin, 1934), "Turkiston milliy adabiyoti va adiblar fojiasiga doir" (Berlin, 1934), "Turkiston milliy harakati va Mustaf Cho'qay" (Istanbul, 1950), "Turkistonga doir

ba'zi jarayonlar haqida qarashlarimiz" (Istanbul, 1952), "Qizil imperalizm" (Istanbul, 1958) va shu kabi qator asarlar yaratdi.

Xulosa qilib aytganda, Tohir Chig'atoyning Turkistonda boshlanib Turkiyada yakun topgan hayot yo'li ko'plab ijod mahsuli va Turkiston uchun qilgan amaliy harakatlari bilan tarix zarvaraqlarida qoldi. Ulkan umidlar bilan Germaniyaga borib ta'lim olishi sovet hukumatining Turkistonda olib borgan qatag'on siyosati bilan uning umidlarini sarobga aylantirdi. Shunga qaramay, u xorijda bo'lsa-da, Turkiston ozodligi uchun kurashdi, Ona vataniga oid asarlar yozdi. O'z iqtidorini qardosh Turkiya eli uchun sarf qildi. Bugun ikki mamlakatda ham uning nomi yaxshi xotiralar bilan esga olinmoqda. U haqida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

#### Foydalangan adabiyotlar:

1. Saadet Sağatay. Prof. Dr. Tahir Zağatay (27.03.1902-27.07.1984) // Turk Kulturu, 1985. – Ocak. – S. 141-145.
2. O'zMA. R-34-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1380-yig'majild.
3. Salimxon. Ko'makning javobi // Turkiston. 1923 yil 29-iyul.
4. Hakan Torun. Tahir Cagatay'in hayati ve faaliyetleri. Yuksek lisans tezi. – Istanbul, 2002.
5. Tuqtamish o'g'li. Kuchaba xujalig'ining ona xatlari // Yosh Turkiston. – 1931. – № 26. – B. 20-21.
6. Yaman E. Osmanlidan Gunumuze Turkistan-Turkiye kulturel ileskilerine genel bir bakis.

## ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA BO'LAJAK ZAXIRADAGI OFITSERLARNI MILLIY VA JANGOVAR RUHDA TARBIYALASH

Xurshidbek Boboyev  
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti  
Harbiy o'quv markazi katta o'qituvchisi, dotsent

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish asosida bo'lajak zaxiradagi ofitserlarni milliy va jangovar ruhda tarbiyalash yo'nalishlarini amalga oshirish natijalari bayon etilgan, bo'lajak zaxiradagi ofitserlarni milliy va jangovar ruhda tarbiyalash mexanizmi ishlab chiqilgan va asosiy jangovar tayyorgarlikning maqsadi, vazifalari, shakllari, uslublari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** milliy ruh, jangovar ruh, xavfsizlik, Qurolli kuchlar, harbiy axloqiy-ruhiy holat, yot g'oyalar, immunitet, konsepsiya, harbiy tuzilmalar, bo'lajak zaxiradagi ofitser.

Ma'lumki, jamiyat rivojlanishining barcha bosqichlarida zamonaviy ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish asosida xalqlarning ijtimoiy ongida milliy va jangovar ruhni shakllantirishga, ular qalbida yuksak vatanparvarlikni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilgan. Masalan, eng qadimgi davrlarda urug', qabilalarning hududlarini himoya qilish va uni tashqi hujumdan asrash uchun maxsus tarkib shakllantirilgan. Keyinchalik davlat boshqaruvining takomillashuvi natijasida davlatni himoya qilish uchun harbiy qo'shinlar tashkil etilgan va ularda milliy va jangovar ruhni



rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, chegaralar dahlsizligini saqlash, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash, tashqi tajovuzdan himoyalanih, ichki barqarorlikni ta'minlash uchun O'zbekiston Mudofaa vazirligi tuzildi. Istiqloqlning ilk kunlaridan boshlab Vatan himoyachilarini milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalashga, ularda milliy va jangovar ruhni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi, ularning qalbi va ongiga ona Vatanga muhabbat, istiqloql g'oyalariga sadoqat tuyg'ularini singdirishning yangi metodologik yondashuvlari ishlab chiqildi.

Natijada, Vatan himoyachilarimizning qalbi va ruhida, turmush tarzida, o'zligini anglash borasida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Shuningdek, mamlakatimizda yoshlarning maqsadli faoliyatini tashkil etish, ularning iqtidorini namoyon etishi uchun yangi imkoniyatlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Shu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "harbiy xizmatchida bugungi zamonaviy to'qnashuvlarga dosh bera oladigan, davlatimiz siyosatini to'g'ri anglab yetadigan jihatlar yetakchi o'rinni egallashi shart", degan g'oyasida harbiy xizmatchilarning nafaqat yuqori harbiy texnologiyalardan foydalanish mahorati, balki jangovar ruhiy tayyorgarlikka ega bo'lishga e'tibor qaratilgan. Bu borada shuni aytish kerakki, armiya jamiyatning ajralmas qismi hisoblanib, uni davr talabi hamda jahon va mintaqadagi mavjud harbiy-siyosiy vaziyatlar xarakteridan kelib chiqqan holda mamlakatdabo'layotgan o'zgarishlarga qat'iy muvofiqlashtirish davlat siyosatining muhim vazifalaridan biridir. Buning uchun bo'lajak zaxiradagi ofitserlarimizning ijtimoiy faollik darajasi, milliy va jangovar ruhi uning kasbiy mahoratining takomillashishiga xizmat qilishi lozim. Bu esa, bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarligini oshirishga, nafaqat harbiy boshqaruv tizimining, balki gumanitar soha vakillarining ishtirokini taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, harbiy xizmatni o'tayotgan ofitserlarga reja asosida turli soha vakillari bilan uchrashuvlarning tashkil etilishi ularning ijtimoiy ongida milliy ruhni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu masalani hal etishda, albatta, kasbiy professionalizm asos qilib olinishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi 158-sonli farmonida [2] xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, harbiy fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari ta'kidlanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi 158-sonli farmonining [2] 1-ilovasi, "Xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish bobi, mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish bo'yicha islohotlar bo'limida jahonda sodir bo'layotgan murakkab global jarayonlarni inobatga olgan holda Qurolli Kuchlarning qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada oshirish, shuningdek, qo'shinlarning jangovar ruhi va salohiyatini yuksaltirish, zamonaviy jang va harbiy mojarolar hamda xorijiy armiyalarning ilg'or tajribasini o'rganish asosida qo'shinlarning jangovar shayligi va mahoratini rivojlantirish, yuqori malakali harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini muntazam takomillashtirib borish, o'quv jarayonlariga harbiy tayyorgarlikning zamonaviy usullarini keng joriy etish masalalari keng yoritilgan. Respublikamizda so'nggi yillarda bo'lajak zaxiradagi ofitserlarni milliy

va jangovar ruhda tarbiyalash, Vatanga sadoqatlik ruhiyatini oshirishning me'yoriy asoslari va moddiy-texnik bazasi yaratilmoqda.

Harbiy xizmatchilar tarixini o'rganish natijasida "mustaqillikning dastlabki yillarida mahalliy ofitser kadrlar yurtimizdagi harbiy xizmatchilar umumiy sonining 0,6 foizini tashkil etgan, ofitserlarni tayyorlash esa, uchta harbiy bilim yurtida va bor-yo'g'i uchta harbiy mutaxassislik bo'yicha olib borilgan" bo'lsa, "amalga oshirilgan ishlar natijasida qo'shimcha ravishda yangi, zamonaviy uchta harbiy ta'lim muassasasi tashkil etildi, kursantlarni o'qitish tizimi esa, ko'p tarmoqli asosda yo'lga qo'yildi". Bu borada mustaqilligimizni qo'lga kiritgan vaqtda Qurolli Kuchlarda Vatan himoyachilari bilan jangovar tayyorgarlik, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish masalasi o'zining dolzarbligi bilan alohida ahamiyat kasb etgan. Bo'lajak zaxiradagi ofitserlarda milliy va jangovar ruhni rivojlantirish uchun quyidagi manbalardan foydalanish yaxshi samara berishi aniqdir, buyuk allomalarimizning o'gitlarini, ularning harbiy vatanparvarlik ruhidagi g'oyalari hamda tegishli asarlar, respublikamizning Konstitutsiyasi va qonunlari, Prezidentimizning asarlari, murojaatlari, nutq hamda ma'ruzalari va chiqishlari; fanlarga oid bo'lgan darslik va adabiyotlar shular jumlasidandir. Bo'lajak zaxiradagi ofitserlarda milliy va jangovar ruhni, milliy g'ururni, milliy iftixorni tuyg'usini, axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni oshirish ishlari harbiy ta'lim muassasalari rahbariyati, sikl boshliqlari, jangovar va maxsus tayyorgarlik, milliy va jangovar ruhni rivojlantirish, tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar uslubiyati fanlari professor-o'qituvchilari tomonidan davlat hokimiyati organlari, davlat va jamoat tashkilotlari bilan uzviy hamkorlikda quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi. Faxriylarning va ijodiy tashkilotlari hamda birlashmalarini bo'lajak zaxiradagi ofitserlar bilan ishlashga faol jalb etish, jangovar va mehnat an'analarini saqlash va uzluksizligini ta'minlash maqsadida ularning tajribasi va ma'naviy imkoniyatlaridan to'liq foydalanish tavsiya etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 8-sentyabrdagi PQ-371-sonli "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish to'g'risida"gi konsepsiyasida [3] O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tuzildi va qo'shinlarda axloqiy-ruhiy tayyorgarlik va jangovar ruhni oshirishda kadrlarni tayyorlash va kadrlar bilan ishlash, qo'shinlarda axloqiy-ruhiy tayyorgarlik va jangovar ruhni oshirishda kadrlarni tayyorlash va kadrlar bilan ishlash, qo'shinlarda axloqiy-ruhiy tayyorgarlik va jangovar ruhni oshirishda amaliy va uslubiy ishlar, qo'shinlarda axloqiy-ruhiy tayyorgarlik va jangovar ruhni oshirishda moddiy-texnik va axborot-mafkuraviy ta'minot ishlari, qo'shinlarda axloqiy-ruhiy tayyorgarlik va jangovar ruhni oshirishda tahlil va o'rganish ishlari bo'yicha barcha vazifalar belgilab o'tildi [3]. Ushbu konsepsiya asosida 2022–2026-yillarda Mudofaa vazirligi qo'shinlarida axloqiy-ruhiy tayyorgarlik obyektlarini barpo etish va takomillashtirish, ularni zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlash bo'yicha "Kompleks dastur" yaratildi.

Bo'linma mansabdor shaxslari – jangovar ruh rivojlantirishning asosiy bo'g'ini bo'lajak zaxiradagi ofitserlarda axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni va jangovar ruhni oshirish ishlari Qurolli Kuchlar qo'mondonliklari, qo'mondonlar, komandir (boshliqlar), shtablar, tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar, jangovar tayyorgarlik organlari tomonidan davlat hokimiyati organlari, davlat va jamoat tashkilotlari bilan uzviy hamkorlikda quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi: axloqiy tayyorgarlik; jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarida ruhiy tayyorgarlik; psixologik ishlar; yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash. Shundan axloqiy tayyorgarlik va jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarida ruhiy tayyorgarlik masalalarini ko'rib chiqamiz.

Axloqiy tayyorgarlik – bu tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar jarayonida bo'lajak zaxiradagi ofitserlar ongiga odob-axloq qoidalari, axloqiy fazilatlarini singdirish, ularda o'z quroli va komandirlariga bo'lgan ishonchni, g'oyaviy e'tiqod va vatanparvarlikni yuksaltirish hamda har qanday vaziyatda oldiga qo'yilgan jangovar vazifani muvaffaqiyatli bajarishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tizimi.

Axloqiy tayyorgarlikning maqsadi – bo'lajak zaxiradagi ofitserlarda ta'lim-tarbiya natijasida yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar va umuminsoniy qadriyatlarni tarbiyalash, ularda vatanparvarlik, burchga sadoqat, mas'uliyat, milliy g'urur va jangovar ruhni yuksaltirish hamda kerak bo'lsa, Vatan himoyasi yo'lida jonini ham fido qilishga tayyor bo'lgan komil inson shaxsini shakllantirish.

Axloqiy tayyorgarlikning asosiy vazifalari: bo'lajak zaxiradagi ofitserlar bilan tizimli ravishda olib boriladigan ma'naviy, tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar jarayonida vatanparvarlik, burchga sadoqat, mas'uliyat, milliy g'urur va halollik kabi yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish; bo'lajak zaxiradagi ofitserlarda insonparvarlik, adolatparvarlik, bag'rikenglik, yuksak madaniyat va odob hamda shon-sharaf, or-nomus, yigitlik g'ururi, sergaklik va hushyorlik, davlat va harbiy sirlarni saqlash kabi umuminsoniy va harbiy qadriyatlarni mustahkamlash; bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning ong-u tafakkuriga Vatan muqaddasligi, uni himoya qilish sharaflil burch ekanligini singdirish hamda ularda milliy armiya va o'z kasbi bilan faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish; Vatan himoyasi yo'lida o'z jonini fido qilgan qahramonlar jasoratini hamda bugungi kunda fidoyilik ko'rsatayotgan harbiy xizmatchilar faoliyatini keng targ'ib etish asosida shaxsiy tarkibda mardlik, jasorat, shijoat kabi sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish.

Axloqiy tayyorgarlikning asosiy shakllari: ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik va tezkor axborot; ma'naviyat va ma'rifat soatlari; badiiy va hujjatli filmlar namoyishi va muhokamasi; kitob mutolaasi; tarixiy-madaniy maskanlarga ekskursiyalar, muzey va teatrlarga tashriflar; suhbatlar, tematik kechalar, ijodiy uchrashuvlar; viktorinalar, intellektual o'yinlar va tanlovlar.


Axloqiy tayyorgarlikning asosiy uslublari – ishontirish, shaxsiy namuna, o'rgatish, o'zini o'zi tarbiyalash, tanqid, rag'batlantirish.

Bo'lajak zaxiradagi ofitserlarni milliy va jangovar ruhda tarbiyalash, ijtimoiy faoliyatga tayyorlashda ularning ma'naviy-ahloqiy tarbiyalanishi ham muhim o'rin tutadi. Chunki, "jamiyatning ma'naviy kamoloti o'z-o'zicha, stixiyali amalga oshmaydi. Har bir tuzum, davr muayyan maqsadlar, talab va ehtiyojlar asosida kishilarning ma'naviy kamolotiga ta'sir ko'rsatadi, unga mazmun va muayyan yo'nalish beradi. Shunga, asosan, inson tarbiyasining biror tizimi, usullari va shakli kelib chiqishi" bilan ifodalanadi.

Respublikamiz olimlaridan R.X. Djurayev [4], A. Erkayev [5], N. Qosimovlar [6] tadqiqotlarida yosh-avlodning ma'naviy kamoloti va fuqarolik pozitsiyasiga alohida e'tibor qaratgan bo'lsa, bobokalonimiz Jaloliddin Rumiy [7] hazratlari vatanparvarlik tarbiyasi ruhiy tarbiya bilan chambarchas holda rivojlanadi deyishadi.

Axloqiy tayyorgarlikning asosiy uslublari: ishontirish, shaxsiy namuna, o'rgatish, o'zini o'zi tarbiyalash, tanqid, rag'batlantirish. Axloqiy tayyorgarlik tadbirlarini tizimli tashkil etish, uning shakl va uslublarni samarali qo'llash orqali axloqiy tayyorgarlikning maqsadlariga erishish ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasi ta'lim va fan sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh negizida yosh-avlodni, ya'ni vatanparvar avlod qilib tarbiyalash eng birinchi masala sifatida qaralmoqda. 1-rasmda bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning milliy va jangovar ruhda tarbiyalash mexanizmini rivojlantirishda axloqiy tayyorgarlikning asosiy shakllari ko'rsatib o'tilgan.






### 1-rasm. Bo'lajak zaxiradagi ofitserlarni milliy va jangovar ruhda tarbiyalash mexanizmini rivojlantirishda axloqiy tayyorgarlikning asosiy shakllari

Ma'lumki, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida [1] yangi avlod kadrlarida diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik, ma'naviy barkamol, ma'naviy-ruhiy va intellektual, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy pozitsiyaga ega, demokratik islohotlarni chuqur anglagan va fuqarolik jamiyatini qurishda, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash kabi ustuvor vazifalar etib belgilandi. Natijada, bo'lajak zaxiradagi ofitserlarni milliy va jangovar ruhda tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari kengaytirildi [1].

Jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarida ruhiy tayyorgarlik – bu bo'lajak zaxiradagi ofitserlar va harbiy jamoalarda zamonaviy jang omillariga qarshi barqaror ruhiy bardoshlilikni hamda yuqori jangovar faollikni ta'minlash, turli vaziyatlarda oldiga qo'yilgan jangovar vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan ruhiy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi. Ruhiy tayyorgarlik tadbirlari jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari bilan uyg'un ravishda amalga oshiriladi.

Jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarida ruhiy tayyorgarlikning maqsadi – bo'lajak zaxiradagi ofitserlar va harbiy jamoalarning yuqori jismoniy va ruhiy zo'riqishlarga bardoshlilikini hamda turli vaziyatlarda ishonchli harakatlanish qobiliyatini shakllantirish hamda bo'linmalar oldidagi jangovar vazifalar muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlash.

2-rasmda bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning milliy va jangovar ruhda tarbiyalash mexanizmini rivojlantirishda jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarida ruhiy tayyorgarlikning asosiy shakllari ko'rsatilgan.



### 2-rasm. Bo'lajak zaxiradagi ofitserlarni milliy va jangovar ruhda tarbiyalash mexanizmini rivojlantirishda jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarida ruhiy tayyorgarlikning asosiy shakllari

Jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarida ruhiy tayyorgarlikning asosiy vazifalari: jangovar tayyorgarlikni real jangovar vaziyatlarga yaqinlashtirilgan holda o'tkazish va ruhiy ta'sir o'tkazish usullarini joriy etish hamda bo'lajak zaxiradagi ofitserlarda ruhiy bardoshlilikni shakllantirish;

jangovar yakka kurash, harbiy-sport musobaqalari va tanlovlarni o'tkazish, shaxsiy tarkibni turli zo'riqishlarni yengib o'tishga, ekstremal sharoitlarda qo'yilgan vazifalarni ishonch bilan bajarishga tayyorlash;

shaxsiy tarkibda jangovar vaziyat omillariga ruhiy ko'nikishni, o'z qo'rquvini boshqarish qobiliyatini shakllantirish va mustahkamlash;

qo'mondonlik tarkibi va boshqa mansabdor shaxslarni zamonaviy jangning ekstremal sharoitida boshqaruv faoliyatiga tayyorlash;

bo'lajak zaxiradagi ofitserlarda mardlik, jasorat, iroda, jangovar faollik, tirishqoqlik kabi ruhiy sifatlarni shakllantirish va mustahkamlash;

jangovar texnika va qurol-aslahani mohirona qo'llash, shaxsiy tarkibni jangovar vaziyatda qat'iyat va tashabbuskorlik bilan harakat qilishga o'rgatish;

harbiy jamoalarda uyushqoqlik, yuksak intizom, jangovar hamjihatlik va sog'lom axloqiy-ruhiy muhitni ta'minlash;

bo'lajak zaxiradagi ofitserlar o'rtasida o'zaro tushunish, yordam berish va jipslikni ta'minlash, harbiy jamoalarda kundalik faoliyat va jangovar vaziyatdagi og'ir sinovlarni birgalikda yengish ko'nikmalarini mustahkamlash;

salbiy g'oya va ta'sirlarga qarshi immunitetni shakllantirish va mustahkamlash.

Jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarida ruhiy tayyorgarlikning asosiy uslublari – ishontirish, shaxsiy namuna, o'zini o'zi tarbiyalash, ko'rsatib berish, mashq qildirish va o'rgatish, tanqid, majburlash va rag'batlantirish.

Bo'lajak zaxiradagi ofitserlarda milliy va jangovar ruhni rivojlantirishda harbiy xizmat jangovar ruhni rivojlantiruvchi faoliyat, bo'linma mansabdor shaxslari – jangovar ruh rivojlantirishning asosiy bo'g'ini, bo'lajak zaxiradagi ofitserlarni milliy va jangovar ruhda tarbiyalash mexanizmini rivojlantirish yo'nalishlarini amalga oshirilishi natijalari, ruhiy tayyorgarlikning asosiy vazifalari bo'yicha berilayotgan barcha ma'lumotlarni zamonaviy ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish asosida bo'lajak zaxiradagi ofitserlarimizning ongiga singdirish lozim bo'ladi.

#### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning "Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi 158-sonli "O'zbekiston–2030" strategiyasi to'g'risidagi farmoni: <https://lex.uz/docs/6600413>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-sentyabrdagi PQ-371-sonli "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish to'g'risida"gi konsepsiyasi.

4. Джураев Р.Х., Мардонов Ш.К. Педагогические идеи великих мыслителей Востока-основа подготовки педагогических кадров // Образование через всю жизнь: непрерывное образование в условиях устойчивого развития. – СПб., 2008. – № 1/4. – С. 29-32.

5. Erkayev A. Milliy g'oya va ma'naviyat: <https://kitobxon.com/uz/kitob/milliy-goya-va-manaviyat>

6. Qosimova N.D. O'smirlar ijtimoiylashuvida ibrat ijtimoiy psixologik xususiyatlarini ahamiyati: Psixol. fanl. nomz. dis. – T., 2010.

7. Mavlono Jaloliddin Rumi. Ma'naviy masnaviy / Rustamjon Rahmatulloh tarjimai. – Toshkent; Hilol nashr, 2017.

# YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY-MA'NAVIY QADRIYATLAR INTEGRATSIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Doniyor Yuldashev  
ISFT instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqola jamiyat milliy taraqqiyotining muhim asosini tashkil etuvchi milliy qadriyatlar tahliliga bag'ishlangan bo'lib, unda mamlakatimizda milliy qadriyatlar tizimi integratsiyasining muhim xususiyatlari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** qadriyat, milliy qadriyat, madaniyat, ma'naviyat, integratsiya, ta'lim-tarbiya, oila, milliy taraqqiyot.

Har bir tarixiy davrda jamiyatning rivojlanishi jarayonida turli omillar ta'siri ostida o'zgarishlarga duch keladigan muayyan qadriyat belgilari mavjud bo'ladi. O'tish davrlari bunda saralash rolini o'ynaydi, bu avvalgi me'yorlarni va jamiyatda o'rnatilgan ayrim qonun-qoidalarni bekor qiladi yoki turli sabablarga ko'ra eskirgan, o'z ahamiyatini yo'qotgandek ko'ringanlarini qayta takomillashtiradi. Keyin esa yangi qadriyat ko'rinishlari paydo bo'ladi. Aytish joizki, davrlar mobaynida, qadriyatlar o'zgarib, takomillashib boradi.

Qadim zamonlardan to hozirgi kungacha «qadriyat» tushunchasi ko'plab mutafakkirlar tomonidan o'rganilgan, ular o'zlarining turlicha ta'riflarini bildirishgan. «Qadriyat bu voqelikdagi muayyan hodisalarning umumbashariy, umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan falsafiy-sotsiologik va aksiologik tushuncha» [2; 858]. Qadriyat nafaqat muayyan jamiyatning, balki umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan barcha sohalarni o'z ichiga olib, bir necha sohalarda qo'llanadi.

Olamga qadriyatli munosabat shakllanishi har bir kishining yetuk inson sifatida voyaga yetishi jarayonining tarkibiy qismidir. Shu bois, «qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmuyi tushunilmog'i lozim. Tabiat va jamiyat hodisalari inson faoliyati tufayli, uning ehtiyojlarini qondirish natijasida qadriyat sirasiga kiritiladi» [6; 13]. Kishi kamolot sari borar ekan o'zini anglaydi, umr, vaqt, davr va boshqalarning haqiqiy qadrini tushunib boradi. Bu foni dunyoning o'tkinchiligi, umrning mazmuni, yashashning maqsadi, odamni dunyoga kelib bajaradigan, qila oladigan amallarini, olamning abadiyligi qarshisidagi lahzalar qadriga yetishni o'rgana boradi. Bu esa mazkur kishida aksiologik munosabat shakllanishining shaxsiy jarayonini anglatadi.

Rus olimi V.P.Tugarinov qadriyat tushunchasini shaxs manfaatlari va maqsadlariga bog'lab o'rgangan. Uning fikricha: «bizga (jamiyat yoki ma'lum bir guruh, sinf) kerak bo'lgan narsani foydali, qadriyat yoki yaxshilik deb ataymiz» [7; 15]. U qadriyatlarining inson ehtiyojidan kelib chiqishini ta'kidlaydi va qadriyatlarini baholash xususiyatlarini obyektiv va subyektiv omillarning birligi deb hisoblaydi.

Qadriyatlar sohasidagi o'zgarishlar ijtimoiy taraqqiyotga bog'liq bo'lib, bu bog'liqlikning rivojlanish bosqichlari, sivilizatsiyalar hayotining muayyan davrlarida



o'ziga xos ahamiyatga ega. Qadriyatlar jamiyat va inson faoliyatiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Gohida qadriyatlarning regulativ (boshqaruvchanlik) funksiyasi yaqqol namoyon bo'ladi.

Qadriyatlarning eng muhim jihati shundaki, u o'tmish bilan bugunni, bugun bilan kelajakni bog'laydigan asosiy vosita rolini bajaradi. Hayot rivojlanib borarkan, qadriyat ham takomillashib, mukammallashaveradi. Qadriyat ham vaqt o'tgan sari o'zgarishi, bugun milliy qadriyat sifatida tan olingan qadriyatlar, yillar o'tib o'z ahamiyatini yo'qotishi, o'rnini boshqasi egallashi mumkin. Ushbu sohadagi yetuk faylasuf olim A.Begmatovning ta'kidlashicha: «taraqqiyotning har bir bosqichida marosimlar tarkibida yuz berayotgan o'zgarishlarning ko'pchiligi «milliy qadriyatlarimizga zid», «milliy axloqimizga to'g'ri kelmaydigan» hodisalar sifatida baholanar edi. Oradan biroz vaqt o'tgach esa ular milliy urf-odat sifatida baholana boshlangan. Masalan, XX asrning 50-yillarida kelin-kuyovning to'y bazmida ishtirok etayotgan mehmonlar oldida yonma-yon o'tirishlari «milliy qadriyatlarimizga mos kelmaydigan» hodisa deyilib, jiddiy qarshilikka duch kelgan edi. 70-yillarga kelib esa, bu oddiy bir hol va milliy urf-odatga aylanib qoldi» [4; 120].

Qadriyatlarni insonlar yaratadi, boyitib boradi va avloddan avlodga o'tgani sayin ular yangilanib boraveradi. «Qadriyatlar muayyan millat va xalqlarning shonli va musibatli o'tmishi, tarixiy-madaniy tajribalari, saboqlari, shod va baxtiyor damlarining ifodasi sifatida namoyon bo'lsa, urf-odatlar, rasm-rusum va marosimlar turmush tarzining shakliy ko'rinishlari sifatida xalq hayotining ma'naviy negizlarini tashkil etadi» [1].

Rivojlanish va taraqqiyot jarayonida, xususan integratsiya jarayonida bir qadriyatlar tizimi izsiz yo'qolib ketmaydi, ikkinchisi esa o'z-o'zidan vujudga kelavermaydi. Tasodifan paydo bo'lib qolgandek tuyuladigan yangilik ham o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, u eskilik va zamonaviylikning hosilasi sifatida shakllanadi. Yangilikning har qanday shaklida eskining ba'zi tomonlari, xususiyat va jihatlari saqlanib qoladi. Bu jarayonlar qadriyatlar tizimi uchun ham umumiydir. Bunda milliy-ma'naviy qadriyatlar muhim rol o'ynaydi. «Milliy-ma'naviy qadriyatlar – murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa bo'lib, u millatning tili, madaniyati, tarixi, udumlari, jamiki ma'naviy boyluklarini qamrab oladi»[5; 10].

Asrlar davomida avloddan avlodga o'tib kelgan va ko'pchilik manfaatlarini o'zida ifodalaydigan moddiy va ma'naviy tushunchalarnigina «milliy qadriyat» sifatida e'tirof etishimiz mumkin. Milliy qadriyatlar milliy makonda shakllanadi, rang-barang tarzda namoyon bo'ladi, millatga mansub kishilarning ongiga ta'sir qiladi, ular uchun ma'naviy mezonlar rolini o'taydi, ijtimoiy rivojlanish jarayonida doimo yangilanib, avloddan-avlodga o'tib boradi. «Baholash paytida, albatta, har bir shaxsning o'z qarashlari, qadriyatlar tizimi muhim rol o'ynaydi»[8; 37].

Milliy qadriyatlar faqat tor doirada saqlanib qolmaydi, balki, turmush jarayonida sayqallanib, yangilanadi, boshqa xalqlar qadriyatlarining yutuqlari bilan yanada boyib taraqqiy etib boradi. Har bir millatning madaniyatida o'ziga xos milliylik bo'ladi. Agar ana shu o'ziga xoslik milliylikni o'sha joyning aholisi qadrlasa, ular hayotining bir qismiga aylanishi mumkin. Aksincha holatlarda esa, yo'qolib ketishi mumkin. Migratsiya jarayoni milliy madaniyat integratsiyasida alohida o'rin tutadi. Kishi boshqa hududga o'tarkan, o'z navbatida, o'zining milliy madaniyatini boshqa hududda saqlab qolishi yoki o'sha hududning milliy madaniyatini qabul qilishi ham mumkin. Shuningdek, boshqa-boshqa davlat vakillarining fuqarolari, ikki millat vakillarining o'rtasida baynalminal oila qurilishi ham integratsiya jarayonini vujudga keltiradi [3].

Bugun O'zbekistonda azaliy sharqona qadriyatlarni tiklash asosida zamon realliklariga mos keladigan yangi qadriyatlar tizimini yaratish asosiy vazifalardan biri bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida tarixiy sinovlardan o'tgan, ijtimoiy ahamiyatga

ega bo'lgan milliy qadriyatlar ustiga quriladi. Xususan, integratsiya jarayonida milliy qadriyatlar tizimi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan masala bo'lib, quyidagi yo'nalishlar asosida takomillashtirilib borilmoqda:

- asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlarni rivojlantirish maqsadida keng jamoatchilikka uning mohiyatini tushuntirish;
- tarixan shakllangan madaniyat durdonalarini asrab-avaylash;
- ma'naviy meros targ'ibot mexanizmlarini takomillashirish;
- millat tarbiyasida milliy madaniyatning o'rnini yuksaltirish;
- rivojlangan davlatlar tajribalari asosida madaniy sohani yanada rivojlantirish;
- milliy qadriyatlarimizning asl holatini yoshlarga singdirish;
- yoshlarning turli salbiy oqimlarga kirib ketmasligi uchun milliy azaliy qadriyatlarimizdan foydalanishni yangi bosqichga ko'tarish va boshqalar.

Xalqimizning asrlar davomida avlodlardan avlodga o'tib kelayotgan Vatanga muhabbat, ajdodlar ruhiga hurmat, o'zidan kattalarga ehtirom, kichiklarga izzat ko'rsatish, ota-onani hurmat qilish, ularning ko'ziga tik boqmaslik, keksalarni qadrlash, birovning haqiga xiyonat qilmaslik, ehson qilish, xayvo va andisha, oilani muqaddas deb bilish, muhtojlarga ko'mak berish kabi ko'plab insoniy fazilatlar milliy qadriyatimiz asosini tashkil etadi. Biroq ba'zi ardoqlab kelayotgan qadriyatlarimiz tobora o'z mohiyatini yo'qotmoqda. Globallashuv jarayonining asosiy kuchi Internet, turli ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlarimiz tarbiyasidagi ayrim nuqsonlar, xususan, kiyinish, muomala madaniyati, ota-onaga munosabat, axloqidagi salbiy holatlar ko'zga tashlanadi. Insoning oliy qadriyat bo'lishiga qaramay uning qadri toptalmoqda. Keksaygan chog'ida ota-onalar «Saxovat» uylariga, farzandlar «Mehribonlik» uylariga topshirilmoqda. Qo'shnichilik, mahallalardagi ahil-inoq yashash munosabatlarida oqibat sezilarli darajada yo'qolgan. To'y va marosimlar kimo'zarga o'tkazilib, ortiqcha dabdababozlikka yo'l qo'yilishi holatlari uchraydi. Oilaning muqaddasligi o'z ahamiyatini yo'qotib, kundan kunga ajrimlar soni ko'paymoqda. Umuman olganda, bu sohada aytiladigan muammolar talaygina. Xususan, bugun yoshlar orasida urf bo'lib borayotgan ochiq-sochiq kiyinish, muomalada milliy tilga e'tiborsizlik, Yevropa mentalitetiga intilish kabi holatlarni uchratish mumkin. Shuning uchun endilikda milliylikni bartaraf etadigan har qanday ongli yoki ongsiz jarayonlar millatni o'ldirish bilan tengdir. Millatning o'limi esa uning o'z ma'naviyati, madaniyatining yo'qolishidadir. So'nggi yillarda ta'lim migratsiyasining kuchayishi universal madaniyatni ruhiy vujudga kelishiga, jumladan «olomon madaniyati»ni ruhiy kengayishiga xizmat qilmoqda.

Yoshlarimizning g'arb teleseriallarida ilgari surilgan g'ayrimilliy yashash tarzi va madaniyatiga taqlid qilishi bizni ayniqsa xavotirga solmoqda. Oilaviy hayot tarzimizdan tortib, hatto kiyinish madaniyatimizgacha g'arbga taqlid qilish kuchaymoqda. Yakuniy natija kim, nima maqsadda undan foydalanishga qarab belgilanadi. Shuning uchun hozirgi kunda yoshlar orasida milliy g'oya, milliy g'urur va or-nomus bilan bog'liq ma'naviy-ruhiy fazilatlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Millat milliy qadriyatning egasi sifatida ijtimoiy taraqqiyot jarayonida o'zgarib, yangilanib, rang-barang jihatlarni kashf qilib boradi. Shu asosda muayyan millatning nomi bilan kelajak zaminini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlar integratsiyasi muayyan millatning jahonda nufuzi oshishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Albatta har bir xalq o'zligini o'zining milliy xususiyatlarida ko'radi. Biroq modernizatsiyalashmagan har bir soha taraqqiyotdan ortda qoladi. Shuning uchun milliy qadriyatlarimizni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'un holatda takomillashtirib borish lozim.

Milliy qadriyatlar asosida ta'lim-tarbiya olgan farzand, kelajakda qayerda, qaysi muhitda yashashi va kim bo'lishidan qat'i nazar hech qachon o'zligini unutmaydi,

hamisha vatanini sogʻinib yashaydi, ona tilini hurmat qiladi, oʻzbekona milliy qadriyatlarini aslo unutmaydi va oʻzi ham farzandlarini shunday ruhda tarbiyalaydi. Asrlar osha saqlanib kelayotgan milliy qadriyatlarimiz yoshlar dunyoqarashining kengayishi, axloqiy asoslar yuksalishiga xizmat qiladi, bu esa uning yanada taraqqiy etishini taʼminlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Aminova D.X. Globallashuv sharoitida madaniyatlararo integrasiya va siyosiy madaniyatni takomillashtirish muammolari (Misr Arab Respublikasi misolida): siyos. fan. nom. ... dis. – Toshkent, 2010. – B.85.
2. Фалсафа. Қомусий луғат. – Тошкент, 2004. – В.858.
3. Farhodjonova N. F. The importance of the spiritual heritage of the jadids in the development of society // Экономика и социум, 2022. – №. 10-2 (101). – С. 33-35.
4. Очилова Б. Миллий маънавий юксалишда мерос, қадриятлар ва ворисийлик. –Тошкент: Истиқлол, 2009. –В.120.
5. Саифназаров И., Саифназарова Ф. Маънавиятимизнинг умрбоқий сарчашмалари. – Тошкент: Меҳнат, 1997.
6. Туленов Ж. Қадриятлар фалсафаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998.
7. Тугаринов В.П. Марксистская философия и проблема ценности // Вопросы философии, 1966. – № 7. – С.15-19.
8. Шермухамедов С., Очилдиев А. Маданият ва цивилизация. – Фарғона, 2000.

## TALABALARNING KASBIY SHAKLLANISHIDA QADRIYATLAR YOʻNALISHLARI TAHLILI

Inabad Yuldasheva  
ChDPU tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Maqolada boʻlajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, boʻlajak yosh kadrlarda kasbiylashuv, kasbiy qadriyatga yoʻnalganlikni amalga oshirish jarayoni, kasbiy qadriyatning mohiyati, kasbiy rivojlanishning beshta asosiy yoʻnalishi, talabalardagi qadriyatlar yoʻnalishi va shaxs yoʻnalganligi boʻyicha natijalar tahlillari ifoda etilgan.

**Kalit soʻzlar:** boʻlajak mutaxassislar, kasbiy faoliyat, yosh kadrlarda kasbiylashuv, kasbiy qadriyat, kasbiy qadriyatga yoʻnalganlik, kasbiy rivojlanish, shaxs yoʻnalganligi, kasbiy shakllanish.

Oliy taʼlim muassasalarida boʻlajak mutaxassislarda kasbiy qadriyatni rivojlantirish masalasi boʻlajak yosh kadrlarda kasbiylashuv, kasbiy qadriyatga yoʻnalganlikni amalga oshirish jarayonida maqsadli shakllantiriladi.

Kasbiy qadriyat, ijtimoiylashuv borasidagi ilmiy-tadqiqot ishlari koʻpday koʻrinadi. Aslida kasbiy qadriyat va ijtimoiylashuv kabi tushunchalar milliy xarakterga ega boʻlgan falsafiy, pedagogik-psixologik va sotsiologik kategoriya hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ushbu muammo koʻp hollarda shaxsni shakllantirish masalalari doirasida koʻrib chiqish bilan chegaralangan [4; 7].

Olimlarimiz kasbiy qadriyatlar toʻgʻrisida maʼlum bilim va koʻnikmalarga ega boʻlishlik mutaxassis sifatida ishlashning muhim sharti ekanligini taʼkidlashganlar [1; 20].



Aniqlanishicha, yetuk mutaxassis bo'lib yetishishda quyidagi sifatlar, ya'ni o'z kasbiy kamoloti uchun intilish (muammoni qo'ya olish, ishga qiziqish bilan yondoshish, pedagogik va psixologik tayyorgarlik), amaliy tajribaga ega bo'lish, individual-psixologik xususiyatlarni mazkur kasb talablariga moslashtirishga intilish muhim hisoblanadi [3; 48].

Kasbiy rivojlanish masalalari chet el pedagog-psixolog olimlari tomonidan o'rganilgan va ular beshta asosiy yo'nalishni farqlashganlar. Bu yo'nalishlarga quyidagilar kiradi:

- 1) differensial diagnostik,
- 2) psixoanalitik,
- 3) qaror qabul qilish nazariyasi,
- 4) taraqqiyot nazariyasi,
- 5) tipologik yo'nalishlar.

1) Differensial – diagnostik yo'nalish bo'yicha izlanishlarda shaxsning kasbiy faoliyat samaradorligini ta'minlash omillariga, kasbga ta'sir ko'rsatuvchi individual psixologik xususiyatlarga va kasbga qo'yilgan talablarga asosiy e'tibor qaratiladi.

2) Psixoanalitik yo'nalish vakillari kasbiy rivojlanishning psixodinamik jihatlarini tahlil qilish bilan shug'ullandilar. Ular kasb tanlash va kasbiy rivojlanish asosida vital instinktlardan tortib kompleks psixodinamik mexanizmlar va shaxs tuzilish instantsiyalarigacha bo'lgan turli xil ehtiyojlar yotadi, degan g'oya bilan chiqdilar.

3) Qaror qabul qilish nazariyasi vakillari kasb tanlash jarayonini o'rganish uchun yo'nalganlik ustanovkalarini tadqiq etishga o'z e'tiborlarini qaratishdilar.

Ularning fikricha, kasbiy rivojlanish va kasb tanlashdagi al'ternativallarni kasbiy faoliyatda yuz beradigan ijobiy hodisalar va erishish motivatsiyasi nazariyasiga tayanibgina tushuntirib berish mumkin [5, 6].

4) Taraqqiyot nazariyasi yo'nalishi vakillari rivojlanish nazariyasiga asoslanib, talabalarining kasb tanlashi bilan bog'liq jarayonlarni asoslashga o'z e'tiborlarini qaratishdilar [4; 83].

Ular kasbiy rivojlanishning quyidagi bosqichlarini ajratib ko'rsatdilar:

1) Vujudga kelish bosqichi (tug'ilgandan to 14 yoshgacha), kasbiy fantaziyalarga tayanib kasb tanlanadi;

2) Tadqiq etish bosqichi (15-24 yosh), shaxs o'zining imkoniyatlariga mos kasbni tanlashni niyat qiladi;

3) Konsolidatsiya bosqichi (25-44 yosh), barqaror shaxsiy pozitsiyaga mos kasbiy faoliyat maydoni o'rnatiladi;

4) Saqlash bosqichi (45-64 yosh). Bu davrda shaxsning kasbiy faoliyati hech qayoqqa og'masdan aniqlangan kasbiy faoliyat maydoni bo'yicha kechadi;

5) Pasayish bosqichi (65 yosh).

Bu bosqichda yangi kasbiy faoliyat roli paydo bo'lib, boshqalarning kasbiy faoliyatini kuzatish yetakchi o'ringa chiqadi [2, 3].

Tipologik yo'nalish vakillari kasbiy faoliyatni tipologiyalashtirishga asosiy e'tiborlarini qaratadilar. Ular shaxsni turli xil yo'nalganlikka ega bo'lgan bir qator turlarga ajratishadilar:

- 1) realistik yo'nalganlik;
- 2) intellektual yo'nalganlik;
- 3) ijtimoiy yo'nalganlik;
- 4) konvensional yo'nalganlik;
- 5) tadbirkorlik yo'nalganlik.

Talabalardagi qadriyatlar yo'nalishi va shaxs yo'nalganligi bo'yicha natijalari tahlilini quyidagi qadriyatlar yo'nalishlari bo'yicha natijalarini ham statistik, ham psixologik mazmunda tahlil qildik (1-jadval)

1-jadval

| № | Maqsadli qadriyatlar              | Sinaluvchilar miqdori | Foizlar ko'rinishida |
|---|-----------------------------------|-----------------------|----------------------|
| 1 | Oliy nufuzga ega bo'lish          | 61                    | 78                   |
| 2 | Yuqori moddiy ta'minlanganlik     | 60                    | 69,2                 |
| 3 | Ijodkorlik                        | 38                    | 50                   |
| 4 | Faol ijtimoiy munosabat           | 42                    | 55,2                 |
| 5 | O'z ustida ishlash                | 23                    | 31,6                 |
| 6 | Yutuqlarga yo'nalganlik           | 33                    | 43,4                 |
| 7 | Ruhiy qoniqish (O'zlikni anglash) | 29                    | 38,8                 |

Jadvalda keltirilgan natijalarga ko'ra, shaxsning maqsadli qadriyatlari o'rtasida ya'ni "Ratsionallik" bilan "Ijodkorlik" va "Yutuqlarga yo'nalganlik", "Boshqalarga bog'liqlik" esa "Ijodkorlik" o'rtasida ishonchlilik darajasiga yetmagan bog'liqlikka ega. Bu holat talabalarning kasbiy ustanovkalari bilan maqsadli qadriyatlari o'rtasida bog'lanishlar shaxsiy rivojlanish bilan kasbiy shakllanishda uyg'unlik hosil eta olmaganligini ko'rsatmoqda.

Balki talabalarning kasbiy ustanovkalari ularning kasbiy faoliyatiga emas, balki shaxsiy hayot sohalariga yo'nalganligi sababli bunday ko'rinish olgandir. Endi biz e'tiborimizni kasbiy ustanovkalar bilan hayotiy qadriyatlar orasidagi munosabatlar tahliliga qaratamiz (2-jadval).

2-jadval

| № | Vositali qadriyatlar | Sinaluvchilar miqdori | Foizlar ko'rinishida |
|---|----------------------|-----------------------|----------------------|
| 1 | Kasb-hunar olami     | 37                    | 49,9                 |
| 2 | Optimistik munosabat | 42                    | 55,2                 |
| 3 | Oilaviy hayot        | 67                    | 89,1                 |
| 4 | Ijtimoiy hayot       | 32                    | 43,3                 |
| 5 | Qiziqishlar olami    | 58                    | 76                   |

Kasbiy ustanovkalar bilan shaxsning maqsadli qadriyatlari o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsientlarida shaxsning ham kasbiy, ham shaxsiy ahamiyatga ega jihatlari orasidagi bog'lanish aniq ko'zga tashlanmayotganligi xarakterlidir. Hayotiy sohalar bilan kasbiy ustanovkalar o'rtasida faqat bitta holat, ya'ni "Optimistik munosabat" bilan "Oilaviy hayot" o'rtasida musbat, ammo ishonchlilik darajasiga ega bo'lmagan koeffitsient kuzatildi.

Balki bunday holatni talabalarimiz kasb tanlashda, kasbni istiqbolidan ko'ra asosiy e'tiborni oilaviy munosabat, oiladagi tinchlik-xotirjamlik, farovon turmushga bag'ishlash lozimligini va kasbiy faoliyat ikkinchi o'ringa ko'chgan degan xulosada ekanligi bilan izohlash mumkin.

Shu bilan birga bugungi kunda talabalarning tanlagan kasblariga nisbatan nomunosibliklarning uchrashi, kasbiy shakllanishdagi sustkashliklarning sababi talabalarning kasbiy shakllanish jarayonidagi kasbiy ustanovkalar va shaxsning qadriyatlari o'rtasidagi munosabatlarining shakllanmaganligidadir.

Talabalarning kasbiy shakllanishida motivlar bilan ustanovkalar orasida bog'liqlik masalasi ma'lum ma'noda yetakchi o'rin egallaydi. Agar motivlar kasbga yo'naltiruvchi hisoblansa, kasbiy ustanovkalar esa tanlangan kasbning aniq va to'g'ri tanlanganligini,

shaxsning kasbga identifikatsiyalashganligi va boshqa jihatlari yuzasidan qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Komilov T., Abidova S. Milliy axloqiy qadriyatlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati. – Toshkent: Fan, 2000. B.20.
2. Макаревич М. А. Ценность // Российская социологическая энциклопедия / Под общ. ред. Акад РАН Г.В. Осипова. – М.: НОРМА-ИНФРА-М, 1998. – С.609-610.
3. Ortiqov N. Ma'naviyat: milliy va umuminsoniy qadriyatlar. - T; "O'zbekiston",1997.B.48.)
4. Подласый И. П. Педагогика: 100 вопросов – 100 ответов. – М.: ВЛАДОС-пресс, 2004. – С. 83.).
5. Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество./Пер. с англ. – М.: Политиздат, 1992. – С. 488–494.
6. Ernazarova G.O. The oretical basis of preparation of future teachers for professional pedagogical activity/Academic Research in Educational Sciences, 3(1), 1057-1065. <https://doi.org/10.24412/2181-1385-2022-1-1057-1065>
7. Sharipov Sh., Aripov M., Begimkulov U., Yo'ldoshev U., Muslimov N. Bilim olishning intellektual tizimini ishlab chiqish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2011. – 240 b.
8. Egamberdiyeva N.M. Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy hamda kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti. Ped.f.dokt. ... diss.avt. – Toshkent: 2010, – B.17

## AXBOROT-KUTUBXONA MUASSASALARIDAGI MUAMMOLAR VA AYRIM ME'YORIY-HUQUQIY HUJJATLARNING TAHLILI

Abodboy Qilichboyev  
Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy  
kutubxonasining Qo'lyozmalar, noyob va  
alohida qiymatga ega nashrlar xizmati rahbari

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada axborot-kutubxona muassasalaridagi ayrim muammolar hamda soha bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, uning joylardagi ijrosi, tizim kutubxonalarining tajriba va yutuqlari haqida ayrim fikrlar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Axborot-kutubxona muassasalari, hujjatlar, qonun, buyruq, vazirlik.

Hozirgi kunda yurtimizda stat.uz bergan ma'lumotiga ko'ra 12 ming 500 dan ortiq axborot-kutubxona muassasalari faoliyat yuritmoqda. Shundan Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tasarrufida 201 ta, Madaniyat vazirligi tasarrufida 144 ta, Maktab va maktabgacha ta'lim vazirligi tasarrufida 10 mingdan ortiq, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida 213 ta axborot-resurs markazlari hamda 700 dan ortiq kollej, texnikum kutubxonalari, Sog'liqni saqlash vazirligi tizimida esa 117 ta tibbiyot kutubxonalari va boshqa vazirlik idoralar tasarrufida axborot-kutubxona muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda.



Mustaqillikdan keyin axborot-kutubxona muassasalari faoliyatining normativ-huquqiy bazasi tubdan takomillashtirilib yangilanib borilmoqda. Bunga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

| t/r  | Hujjat nomi  | Qabul qilingan yil / hujjat raqami |
|--|--|------------------------------------|
| <b>Qonun</b>   |  |                                    |
| 1  | Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida  | 13.04.2011 O'RQ-280                |
| 2  | Elektron hujjat aylanishi to'g'risida  | 29.04.2004 611-II                  |
| 3  | Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida  | 20.07.2006 O'RQ-42                 |
| 4  | Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida  | 05.05.2014 O'RQ-369                |
| 5  | Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida  | 08.09.2017 O'RQ-444                |
| 6  | Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida  | 11.09.2017 O'RQ-445                |
| 7  | Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida  | 20.01.2021 O'RQ-668                |
| 8  | Arxiv ishi to'g'risida   | 15.06.2010 O'RQ-252                |
| <b>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari</b>        |  |                                    |
| 1  | Matbuot va axborot sohasida boshqaruvni yanada takomillashtirish to'g'risida   | 11.08.2017 PF-5148                 |
| 2  | Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida   | 19.02.2018 PF-5349                 |
| 3  | Axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida   | 02.02.2019 PF-5653                 |
| <b>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi</b>        |  |                                    |
| 1  | Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha Komissiya tuzish to'g'risida                                | 12.01.2017 F-4789                  |
| <b>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari</b>         |  |                                    |
| 1  | Respublika aholisini Axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida  | 20.06.2006 PQ-381                  |
| 2  | O'zbekiston matbuot va axborot agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida  | 17.08.2017 PQ-3223                 |
| 3  | Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida                 | 13.09.2017 PQ-3271                 |
| 4  | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida  | 02.02.2019 PQ-4151                 |
| 5  | O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida   | 07.06.2019 PQ-4354                 |
| 6  | Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida   | 30.09.2019 PQ-4467                 |
| <b>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari</b> |  |                                    |
| 1  | Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasini tashkil etish to'g'risida   | 12.04.2002 VMQ-123                 |
| 2  | Nodir, alohida qimmatli va noyob nashrlar saqlanishini ta'minlash, ularning fondini tizimli ko'paytirish va Nogironligi bo'lgan shaxslarga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish tizimini takomillashtirish to'g'risida | 09.07.2012 VMQ-202                 |
| 3  | Nogironligi bo'lgan shaxslarga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish tizimini takomillashtirish to'g'risida   | 18.09.2018 VMQ-739                 |

|                            |  |   |
|----------------------------|--|---|
| 4                          | 2020 - 2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida   | 14.12.2020 VMQ-781  |
| 5                          | Axborot-kutubxona a'lochisi ko'krak nishonini ta'sis etish to'g'risida   | 22.12.2020 VMQ-803  |
| 6                          | Axborot-kutubxona muassasalarida axborot-kutubxona resurslarini hisobga olish, fondlarni saqlash va hisobdan chiqarish sohasidagi ayrim normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida                                      | 30.09.2022 VMQ-552  |
| <b>Sohaga oid qarorlar</b> |  |   |
| 1                          | Notariyslarning ijro xatlariga asosan qarzni undirish so'zsiz amalga oshiriladigan hujjatlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida   | 18.01.2002 VMQ-26   |
| 2                          | Oliy ta'lim muassasalarini o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash to'g'risida   | 10.10.2018 VMQ- 816   |
| <b>Nizomlar</b>            |  |   |
| 1                          | Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi – axborot-resurs markazi tomonidan axborot-kutubxona muassasalarining tashkiliy-metodik faoliyatini muvofiqlashtirish va ular bilan o'zaro aloqani ta'minlash to'g'risida | O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2014-yil 10-martda ro'yxatdan o'tkazilgan (ro'yxat raqami 2568) |
| 2                          | Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati to'g'risidagi axborotni axborot-kutubxona va arxiv muassasalariga taqdim etish tartibi to'g'risidagi   | O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2016-yil 7-iyulda ro'yxatdan o'tkazilgan (ro'yxat raqami 2806)  |
| <b>Yo'riqnoma</b>          |  |   |
| 1                          | Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan axborot-kutubxona va arxiv muassasalariga taqdim etilgan hujjatlar bilan ishlash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida  | O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2016-yil 7-iyulda ro'yxatdan o'tkazilgan (ro'yxat raqami 2807)  |

Jadvalda berilgan hujjatlar bilan birgalikda 14 ta Axborot, kutubxonachilik va nashriyotchilik ishi bo'yicha standartlar tizimi. O'zbekiston davlat standarti (O'zDSt) qabul qilingan. Bundan tashqari 60 dan ortiq davlatlararo standartlar (GOST)ga amal qilinadi.

Ba'zi vazirliklar tizimidagi axborot-kutubxona muassasalari uchun qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning ayrimlarini tahlil qilsak. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 29-sentyabrdagi "Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lash shartlarini tartibga solish to'g'risida"gi 490-son qarori 1-ilovasi 23-bandida:

Maktablar, barcha tur va nomdagi maktab-internatlar, o'rta maxsus va hunar-texnika o'quv yurtlari kutubxonachilariga yoki boshqa xodimlarga darsliklarning kutubxona fondi bilan shug'ullanganliklari uchun mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 3,6 foizi miqdorida qo'shimcha haq to'lanishi va keyingi har bir 1500 nusxa darsliklar uchun 5 foiz, biroq mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 10,6 foiz miqdoridan ko'p bo'lmagan qo'shimcha haq to'lanishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmoni asosida Madaniyat vazirligi tizimidagi ko'zi ojizlar kutubxonalari xodimlariga ish stajiga qarab 5 foizdan 50 foizga oylik maoshiga qo'shimcha ustamalar belgilangan.



Yuqorida keltirib o'tilgan ustamalar kutubxonachi xodimlarning mashaqqatli, qolaversa sog'lig'iga jiddiy ta'sir qilishini e'tiborga olinganidan dalolatdir. Lekin bunday ustamalarni barcha axborot-kutubxona muassasalari xodimlariga ham joriy qilinsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, bugungi kunda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimida o'n ming to'rt yuzdan ortiq maktab kutubxonalari mavjud. Respublikamizdagi faoliyat ko'rsatayotgan barcha maktab kutubxonalariga 10 turdan ortiq inventar jihozlar (yakka tartibdagi va jamlanma hisobga olish daftari, kundalik, katalog kartochlari va h.k) bepul ajratilib, kutubxonalarga berilgan. Bu ham kutubxonachilik ishini va hujjatlarini bir xil tartibda yuritishga katta hissa qo'shishi shubhasiz.

Kutubxonalarning samarali belgilangan me'yor va talablar asosida faoliyat olib borishida metodik yordamning roli katta. Lekin nazarimda aksariyat vazirlik va idoralar tasarrufidagi kutubxonalarga metodik yordam ko'rsatilishi oqsayotgandek. Buning natijasida kadrlar qo'nimsizligi, belgilangan ishlarning noto'g'ri bajarilishi, yangilik va tajribalardan xabarsiz qolayotganligi kabi holatlar kuzatiladi.

Buni Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimidagi axborot-resurs markazlari misolida ko'rsak. Ta'lim muassasasining axborot-resurs markazi to'g'risida namunaviy Nizomi 1.8. bandida Mirzo Ulug'bek nomidagi Milliy universitetning ilmiy kutubxonasi – Oliy o'quv yurtlari ARMLarining metodik markazi orqali amalga oshirilishi belgilangan. Mazkur universitet ARM tashkiliy tuzilmasida Ilmiy-uslubiy va axborot ma'lumot (davriy nashrlar) bo'limi mavjud. Lekin keyingi yillarda ARM va bo'lim tomonidan institut va universitet ARMLariga metodik yordam ko'rsatish ishlari deyarli to'xtab qolgan. Yana respublika oliy ta'lim muassasalarining har bir ARMda mazkur bo'lim mavjud. Lekin bo'limning ishi muassasadagi professor-o'qituvchilarning ilmiy ishlari, davriy nashrlar bilan ishlashgina bo'lib qolgan xolos.

Yana bir muammo esa O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2019-yil 14-iyundagi 160-sonli buyrug'iga Ilovasida Umumta'lim muassasasi kutubxonachisining lavozim Yo'riqnomasida maktab kutubxonachisi quyidagi talablarga javob berishi lozim:

Kutubxona ishi sohasida oliy yoki o'rta-maxsus ma'lumotga ega bo'lishi belgilangan bo'lsa, 2023-yilda bu belgilangan talab ("Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi markaziy apparati, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari, vazirlik tizimidagi respublika tashkilotlari va muassasalari hamda umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to'g'risida"gi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 16-avgustdagi 247-sonli buyrug'iga 4-ilova Umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) Kutubxona mudiri, kutubxonachi lavozimining malaka tavsiflarida (101-bet) o'rta-maxsus ma'lumot yoki oliy bakalavr diplomiga ega bo'lishi ko'rsatilgan. Lekin Mutaxassislik va mehnat staji talab etilmasligi belgilangan) bekor qilingan. Demak, bundan buyon eng tashvishlisi maktab kutubxonachisi lavozimiga mehnat staji va kutubxonachilik mutaxassisligi talab qilinmaydi.

Maktab kutubxonachisi kitob, kitobxonlik va kutubxonachilik ishi bir chetda qolib ijara darsliklari bilan shug'ullanayotgan, qolaversa maktab kutubxonalarining moddiy-texnik bazasi bir ahvolda qolayotgan vaqtda bu buyruq ijrosi bo'yicha qaysi soha mutaxassisi bugungi kun talablari bo'yicha bajaradigan ishlarini tasavvur qilish qiyin emasga o'xshaydi nazarimda.



Boshqa tizimdagi kutubxonalarda ham oliy ma'lumotli kutubxonachilik sohasidagi mutaxassislar bilan ta'minlanganlik darajasi qoniqarli ahvolda deb bo'lmaydi. Sababi barchaga ayon, kutubxonachi xodimlarning oylik maoshlarining kamligidir.

30 yildan ortiq davr mobaynida kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirishga mo'ljallangan Yagona elektron katalog dasturida ishlashga erisha olmadik. Har bir tizimda alohida dastur. Shu paytgacha kutubxonalarimiz ARMAT, KADATA, IRBIS va h.k avtomatlashgan dasturlarda ish olib borishdi. Endi AKBT (avtomatlashtirilgan kutubxona boshqaruv tizimi) dasturi joriy qilinmoqda. Yurtimizda dasturchilar, tajribali kutubxonachilar, hamda ularga ajratiladigan moliya ham yetarli nazarimda. Faqat hamkorlikda ishlash va qo'llab-quvvatlash yetishmaydi. Har bir tizim va undagi kutubxonalar belgilangan topshiriq, vazifalarni bajarish bo'yicha ish olib borishga ko'nikkan. Hamkorlik, tajriba almashish keyingi o'rinlarga tushib qolganga o'xshaydi. Bunga yechim sifatida moliyaviy masalani hal qilib, tizimdagi kutubxona xodimlari dasturchilar bilan birgalikda barcha kutubxonalariga qulay va oson bo'ladigan mukammal milliy dastur loyihasini ishlab chiqish, amaliyotda sinab ko'rish lozim.

Yana bir masala 2022-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining "Ayrimidoraviynormativ-huquqiyhujjatlarniidoraviynormativ-huquqiyhujjatlarning davlat reestridan chiqarish to'g'risida"gi buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 10-mayda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3366)ga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi kutubxona fondlarini qayta baholash indekslarini e'lon qilmaydi. Bundan buyon kutubxonalar fondini qayta baholash koeffitsientlarini e'lon qiladigan vakolatni organni belgilash zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Kutubxonachilik kasbi ayrim kishilar nazdida kitob olish va joyiga qaytirib qo'yish, qolgan vaqtlarini kitob o'qish bilan o'tkazadigan xodimlar sanashadi. Bu soha xodimlari ham igna bilan quduq qazigandek ertadan kechgacha tinim bilmay kitobxonlar bilimini, ma'naviyati va madaniyatini oshirish uchun xizmat qiladi. Qilgan mehnati esa bir necha yillardan keyin "meva" beradi. Bu esa jamiyatimiz taraqqiyoti uchun cheksiz hissa qo'shadigan har sohaning yetuk mutaxassislaridir.

Soha bo'yicha qabul qilingan normativ hujjatlarni bejizga keltirmadim (Uni sharhlash, amaldagi ijrosi boshqa mavzu). Qator hujjatlar qabul qilinganiga qaramay yana hal qilinishi lozim bo'lgan bir qancha kutubxona fondlarini adabiyotlar bilan to'ldirish, kutubxonalarini zamonaviy binolar bilan ta'minlash, kadrlar qo'nimsizligi, zamonaviy axborot texnologiyalari va dasturiy ta'minot, maktab kutubxonalarini badiiy adabiyotlar bilan yetarli darajada ta'minlash va h.k muammolar mavjud. Bularni ham tajribali, malakali hamda bilimli mutaxassislar ishtirokida o'rganib, tahlil qilib zarur hollarda tegishli hujjatlarni tayyorlab qabul qilish zarurati tug'iladi.

Tilga olib o'tilgan hujjatlarning ijrosi hamda samarasi o'laroq sohada erishilayotgan tajriba va yutuqlar ham bor albatta. Yutuqlarimiz o'zimizniki. Ko'proq muammolarni birgalikda hal qilishimiz, yechimini topish zarur. Har bir tizim alohida ish yuritsa, tizimlardagi kutubxonalar bilan hamkorlik qilinmasa, tajribalar yetarli darajada o'rganilmasa ko'zlangan maqsad va natijalarga erishib bo'lmasligi hech kimga sir emas. O'ylaymanki, O'zbekiston axborot-kutubxona muassasalari hamkorlikda ishlab, fikr almashib, aniq maqsad sari intilsa albatta ko'zlangan maqsad va natijalarga erishadi. Hukumatimiz oldiga zarur hujjatlarni ishlab chiqish, muammo va uning yechimi bo'yicha, shuningdek dolzarb masalalarni qo'ya oladi.

# IJTIMOY TARMOQLARNING HAYOTIMIZDAGI O'RNI HAMDA UNDA SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI

Feruza Tohirova

ISFT instituti "Pedagogika va psixologiya"  
ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning hayotimizdagi o'rni hamda undan samarali foydalanish yo'llari haqida ma'lumot berilgan. Xususan, ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy va salbiy jihatlari haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy tarmoqlar, ijtimoiy munosabatlar, giyohvandlik, onlayn bezorilik, uyqusizlik, holsizlik va kuchsizlik, dezinformatsiya, rejalashtirish.

Ma'lumki, ijtimoiy tarmoq – bu qiziqishlari o'xshash, onlayn aloqaga ega bo'lgan odamlar o'rtasidagi muloqot qilish, tanishish, ijtimoiy munosabatlar yaratish uchun ko'ngilochar (musiqa va filmlar) va ish maqsadlarida ishlatiladigan onlayn platforma. Ijtimoiy tarmoqlar 1995-yil Classmates.com AQSH portali paydo bo'lishi bilan mashhurlikka erisha boshladi. Hozirgi davrda ijtimoiy tarmoqlarsiz hayotimizni tasavvur etib bo'lmaydi. Turli xil web forumli saytlar vujudga kela boshladi. Ular orqali insonlar turli mavzularda o'z fikrlarini bildirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. 1996-yil 15-noyabr kuni maktab o'quvchilari A.Vardi, S.Visiger, Y.Goldfinger, A.Amir "Internet pager" nomli xabar almashinuvi dasturini ishlab chiqishdi va ko'p o'tmay "ICQ new"ga aylandi.

"2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonining 9-maqsadi quyidagicha belgilangan:

"Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarining ulushini 100 foizga yetkazish hamda byurokratiyani bartaraf etish;

Davlat xizmatlarini mobil ilovalar orqali ko'rsatishni kengaytirish;

Davlat xizmatlarini ko'rsatishda shaxsni identifikatsiya qilishning Mobile ID tizimini joriy qilish;

"Elektron hukumat" tizimi idoralararo integrasiyalashuv platformasi orqali davlat organlari hamda xususiy tijorat tashkilotlari o'rtasida ma'lumot almashinuvini yo'lga qo'yish asosida byurokratik jarayonlarni qisqartirish;

Shaxsga doir ma'lumotlarning himoyasini ta'minlaydigan ruxsat berish hamda xabardor qilish tizimini joriy etish".

Ijtimoiy tarmoq go'yoki katta bozor, u yerda xaridorlar o'ziga kerakli mahsulotlarni tanlab oladilar. Bu mahsulotlar bizning ehtiyojlarimizni qondirishga xizmat qiladi. Har birimiz internet saytlaridan o'z maqsadimiz yo'lida foydalanamiz.

Biroq, fan va texnika jadal rivojlanayotgan ayni bir vaqtda aksariyat yoshlarimizning dunyoqarashi butunlay o'zgacha va bunday yoshlar vaqtini bekor sarflab internet saytlarida o'tkazishmoqda. Afsuski millionlab yoshlar ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish odoblarini bilishmaydi. Shuni ham aytish kerakki, kichik muammolar o'z-o'zidan kattalarini keltirib chiqaradi. O'ylashadiki ijtimoiy tarmoqlar

faqatgina video lavhalar, turli chet el kinolarini ko'rish, instagram, telegram va shunga o'xshash ijtimoiy tarmoqlarda muloqot uchungina foydalanishga yaraydi deb. Biz ayni damda ijtimoiy tarmoqlarni to'laqonli yomon deya olmaymiz. Internet saytlari orqali o'z biznesini yo'lga qo'rganlar oramizda ko'plab topiladi. Xalqimizda bir naql bor: oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur. Har bir vayronkor ish, g'oya ilmsizlikdan kelib chiqadi. Albatta, axborot asrida zamonaviy texnologiyalar hayotimizga tobora kirib kelyapti. Katta-yu kichik orasida internetdan foydalanuvchilar kutubxonadagi kitob o'qiyotgan insonlar sonidan ancha ko'p. Texnologiya, ijtimoiy tarmoq, ommaviy axborot shiddat bilan rivojlanyapti. Xolbuki kelajakni yuqori texnologiyalarsiz aslo tasavvur etib bo'lmaydi.

Siz o'zingizning shaxsiy muammolaringizni hal qilishingiz, internet do'konlardan buyurtma berishingiz, uyali aloqa vositasi orqali boshqalarga murojaat qilishingiz mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarda do'stlaringiz va oilangiz bilan mazmunli vaqt o'tkazishingiz mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanayotganda ijtimoiy norma va qoidalarga amal qilish, me'yorni unutmazlik kerak. Ijtimoiy tarmoqlarda video, audio, surat biror bir shaxs yoki suhbatdoshlarni topish juda oson. Internet saytlariga hozirgi kunda insonlar o'z ismi, sharifi, tug'ilgan sana yoki shunga o'xshash turli taxalluslar orqali kirishadi. Bu ma'lumotlar orqali uzatilgan xabar kursdoshlar va tanish-bilishlar bir-birlarini topishga yordam beradi yaqinlar bilan bog'lanish, ularning mobil aloqalari orqali yozma tovushli ta'sirli shaklda muloqot qilishlari mumkin. Bundan tashqari dunyoning narigi chekkasi yoki shahar-qishloqlar bilan bog'lanish ham mumkin va bu juda qulay, hamyonbop narxlarda.

Ijtimoiy media ko'plab ijobiy tomonlarga ega. Masalan, aloqani yaxshilash, ma'lumot olish, ta'lim va o'qish, mahsulotini reklama qilish (brendni ilgari surish), daromad olish imkoniyatining yuqoriligi va boshqalar. Bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy tarmoqlar arzon va bepul ta'lim olish uchun imkoniyat eshiklarini keng ochgan. Nafaqat ilm olish, hattoki boshqalarga tarqatishda ham keng qo'llaniladi hamda o'z pedagogik mahoratlarini namoyish etish va virtual o'quvchilar to'plashi mumkin. Bundan tashqari saviyali reklama, turli ko'rinishdagi videolavhalar orqali qo'shimcha daromadga ega bo'lishlari mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarning yuqoridagi ijobiy tomonlari bilan birga salbiy tomonlari ham mavjud. Ularni birma-bir ko'rib chiqamiz:

**Qaramlik.** Ko'pgina yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda juda ko'p vaqt sarflashadi, bu esa o'ziga qaram bo'lib qolishi va ruhiy tushkunlik, tashvish, yolg'izlik va boshqalar kabi psixologik muammolarga olib kelishi mumkin.

**Onlayn bezorilik (kiberbulling).** Ijtimoiy tarmoqlarda bezorilik ko'payib bormoqda. Bu tashvish, ishonchsizlik, o'zini o'zi qadrlashning pasayishi va hatto o'z joniga qasd qilish fikrlariga olib kelishi mumkin.

**Uyqusizlik.** Salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy tarmoqlarda juda ko'p vaqt sarflash jismoniy faollikning pasayishiga, shuningdek uyqu sifatining susayishiga olib kelishi mumkin. Chunki, yoshlar ko'p hollarda tuni bilan ijtimoiy tarmoqlarda aloqada bo'lishadi.

**Holsizlik va kuchsizlik.** Energiyaning noto'g'ri taqsimlanishi, uyali aloqa vositasidan nurlanish, kamharakatlik.

**Dezinformatsiya** tashviqot yoki propagandaning bir qismi bo'lib, odamlarni aldash uchun ataylab tarqatilgan yolg'on axborot sifatida ta'riflanadi. Rus manbalarida



esa, dezinformatsiya raqobatchiga yoki biznes sherigiga yanada samarali jangovar harakatlar, hamkorlik qilish, axborotning sizib chiqishini tekshirish va uning chiqib ketish yo'nalishini tekshirish hamda qora bozorning potentsial mijozlarini aniqlash uchun ataylab yolg'on yoki buzib ko'rsatilgan axborot yaratish va tarqatish jarayoni sifatida tariflangan. Dezinformatsiya ijtimoiy tarmoqlar, shuningdek, shaxsiy huquqlari, sud jarayonlari, siyosiy barqarorlik va boshqalarga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan yolg'on ma'lumotlarning tarqalishiga olib kelishi mumkin.

Biror bir ma'lumot, axborot, yangiliklarni ijtimoiy tarmoqlarda topish oson. Deylik biznes sohasiga qiziqqan insonlar ayni shu yo'nalishda ma'lumot olishi, guruh, kanallarga a'zo bo'lishlari ham mumkin. Turli sohalarda ma'lumotlar olishi, kerakli bilim va tasavvurlar hosil qilish imkoniyatiga ega. Bugungi kunga kelib maktabgacha talim, maktab, oliy ta'lim muassasalarida ham internet saytlari orqali audio yozuvlar, video lavhalar taqdim etilmoqda.

Lekin shuni tushunishimiz kerakki, har bir inson ijtimoiy tarmoqlardan o'ziga xos tarzda foydalanadi va ma'noni bema'nilikdan ajrata bilish va ijtimoiy tarmoqlarda va real hayot hamda o'z hayotingiz o'rtasida muvozanatni shakllantirish orqali yashash muhimdir.

Ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri va noto'g'ri yo'llarda me'yordan ortiq foydalanish inson ongiga, tarbiyasiga zarar yetkazadi. Har birimizning hayotimizda kundalik reja bo'lgani o'zimizga foyda.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, har bir kunda har qanday vazifalarni bajarishimiz uchun reja qilib olsak samarali natijaga erishamiz. Tunda yoki erta tongda kundalik ishlarimizni taqsimlab chiqishimiz kerak bo'ladi.

Rejalashtirish – o'zini o'zi tarbiyalashni talab qiladi, agar rejangiz bo'lmasa unda sizning harakatlaringiz tartibsiz va samarasiz bo'ladi va bu mehnat unumdorligimizning oshishiga xizmat qilmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030 strategiyasi" to'g'risidagi farmoni.
2. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF 60-sonli farmoni. 2022-yil 28-yanvar.
3. <https://www.vikipediya.uz>
4. <https://www.daryo.uz> sayti O'zbekistonda ijtimoiy tarmoq va messenjerlardan foydalanish
5. <https://www.religions.uz> O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mita

## THE ROLE OF YOUNG PEOPLE IN MODERNIZING EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

Ruslan Yuldoshev

4<sup>th</sup> year student at the UzSWLU

**Abstract:** *This article explores the transformative potential of youth-led innovations in educational technologies, showcasing case studies ranging from gamifying learning to harnessing augmented reality for inclusive education. By delving into the challenges and opportunities faced by young innovators, it examines how creativity, collaboration, and resilience shape the future of education through technology. Through examples like hackathons, tech incubators, and policy advocacy campaigns, the article illuminates the impact of youth-led initiatives in redefining assessment practices, promoting student agency, and driving societal change in the digital age.*

**Keywords:** *youth-led initiatives, educational technologies, innovation, student-centered learning, challenges, opportunities, creativity, collaboration, empowerment, technology integration, future of education, virtual reality (VR) and augmented reality (AR), artificial intelligence (AI).*

In a world propelled by constant technological advancements, the landscape of education stands poised for a transformation led by the digital natives of today – the young generation. As the digital age continues to shape our society, the role of young people in modernizing educational technologies has become increasingly vital. This article delves into the unique contributions of youth in steering the evolution of educational technologies towards more interactive and dynamic learning environments. Picture a classroom pulsating with energy, where students are not just passive recipients of knowledge but active architects of their learning journey. This vision of a technologically enriched educational realm is not a distant dream but a tangible reality being propelled by the passion and innovation of young minds. As we stand at the cusp of a digital revolution in education, the torchbearers of change are not seasoned educators or policymakers but the young individuals who embody a natural affinity for technology and a thirst for innovation.

The dawn of the digital era has blurred the lines between traditional teaching methodologies and modern technological interventions, opening a realm of possibilities for reshaping the educational landscape. It is within this transformative backdrop that the voices of youth echo with a resonance that heralds a new era where students are not just consumers but creators of educational content. By harnessing their innate digital literacy, creativity, and vision, young people are poised to revolutionize educational technologies and pave the way for a more engaging, interactive, and personalized approach to learning. Empowering young individuals to play an active role in modernizing educational technologies goes beyond merely providing them with access to devices and platforms. It entails nurturing a culture of innovation, collaboration, and digital fluency that empowers students to leverage

technology as a tool for exploration, creation, and problem-solving. By embracing the collective wisdom and ingenuity of youth, educational institutions can embark on a transformative journey towards a future where learning transcends the boundaries of traditional classrooms and unfolds in a dynamic digital ecosystem.

Expanding upon the premise laid out in the introduction, the narrative of youth as catalysts for change in educational technologies unfolds as a transformative tale of innovation, collaboration, and empowerment. At the heart of this narrative lies the innate potential of young individuals to shape the future of education through their visionary ideas, technical prowess, and unwavering commitment to driving positive change in the digital realm. One of the most striking manifestations of youth-led innovation in educational technologies can be witnessed in the realm of virtual reality (VR) and augmented reality (AR) applications for learning. Imagine a group of high school students collaborating with educators and tech experts to design immersive VR simulations that transport students to historical events, scientific phenomena, or cultural landmarks. By bridging the gap between traditional pedagogy and cutting-edge technologies, these young trailblazers are revolutionizing the way knowledge is acquired, understood, and internalized in the 21st-century classroom. Moreover, the rise of youth-driven platforms and online communities focused on open educational resources (OER) underscores the transformative power of collaboration and knowledge-sharing in modernizing educational technologies. Through initiatives like peer-to-peer tutoring networks, interactive study resources, and online skill-sharing hubs, young learners are not only expanding their own horizons but also democratizing access to quality education for peers across geographical boundaries. This collective effort to co-create and curate educational content exemplifies the democratization of knowledge production and dissemination, with youth at the forefront of this educational revolution. A notable example of youth advocacy in the realm of educational technologies is the burgeoning movement for digital sustainability in schools. In response to the environmental impact of digital devices and the need for sustainable technology practices, young activists are lobbying for eco-friendly tech solutions, energy-efficient infrastructures, and responsible e-waste management policies in educational institutions. By championing the cause of digital sustainability, youth are not only safeguarding the planet for future generations but also fostering a culture of ethical and socially responsible technological innovation in education.

In essence, youth as catalysts for change in educational technologies epitomize the spirit of innovation, resilience, and collaborative problem-solving that is essential for steering the education sector towards a more equitable, inclusive, and technologically advanced future. By empowering young individuals to leverage their creativity, passion, and digital fluency in reshaping educational technologies, we are not just envisioning a brighter tomorrow but actively co-creating it with the change-makers of today.

Building upon the narrative of youth as catalysts for change in educational technologies, the exploration of case studies showcasing the transformative impact of young innovators takes center stage. These real-world examples serve as testaments to the ingenuity, creativity, and collaborative spirit of youth in reshaping the educational landscape through innovative technological interventions that empower learners and educators alike.

Case Study 1: Gamifying Learning for Engagement - in a high school known for its innovative teaching methods, a group of students introduced a gamification project



to make learning more engaging and interactive. By developing educational games that aligned with the curriculum, these young innovators transformed traditional lessons into immersive gaming experiences that incentivized learning, fostered teamwork, and sparked a love for knowledge acquisition among their peers. Through the gamification of learning, students not only improved their academic performance but also developed critical thinking, problem-solving, and collaboration skills in a fun and engaging way, forging a new path towards student-centered, dynamic education.

Case Study 2: Redefining Assessment with AI - in a forward-thinking educational institution, a team of students embarked on a project to revolutionize assessment practices through the integration of artificial intelligence (AI) tools. By developing AI-powered assessment platforms that offered instant feedback, personalized insights, and adaptive learning pathways, these young innovators redefined the assessment process, shifting the focus from standardized testing to authentic, competency-based evaluation. Through the adoption of AI in assessment, educators were able to gain deeper insights into student progress, tailor instruction to individual needs, and promote a growth mindset that prioritized learning outcomes over grades, marking a paradigm shift in how student learning was evaluated and supported. The core objective of the "Redefining Assessment with AI" project was to shift the focus of assessment from conventional standardized testing to a more dynamic and adaptive evaluation framework that prioritized holistic understanding, critical thinking, and real-world application of knowledge. By harnessing the capabilities of AI algorithms, the student innovators developed an AI-powered assessment platform that went beyond traditional grading systems to offer a multifaceted approach to evaluating student performance and progress.

One of the key features of the AI-powered assessment platform was its ability to provide instant feedback to students based on their responses, enabling them to receive timely insights into their strengths, areas for improvement, and learning gaps. This real-time feedback mechanism not only empowered students to take ownership of their learning journey but also facilitated immediate intervention and support from teachers to address individual learning needs effectively. By offering personalized feedback tailored to each student's unique learning profile, the AI assessment platform promoted a growth mindset and a culture of continuous learning, encouraging students to strive for excellence and embrace challenges as opportunities for growth. Moreover, by integrating AI-powered assessment tools into the educational ecosystem, the student-led initiative not only transformed the way student learning was evaluated but also provided educators with valuable insights into student progress, learning trajectories, and instructional effectiveness. The AI platform enabled teachers to gain a deeper understanding of student learning profiles, identify areas of strength and challenge, and tailor their instruction to meet the diverse needs of learners effectively. Additionally, the data-driven feedback generated by the AI system facilitated evidence-based decision-making, instructional planning, and intervention strategies, empowering educators to support student growth and learning outcomes more strategically and effectively.

Navigating the complex landscape of educational technology innovations led by youth presents a myriad of challenges and opportunities that shape the transformative potential of these initiatives. From overcoming technical constraints and resource limitations to harnessing the creative energy and collaborative spirit of young

innovators, the journey of youth-led educational technology projects is marked by a delicate balance of obstacles to surmount and possibilities to explore.

The challenges that can be faced while incorporating youth in modifying learning technologies are followings: 1) Technical Expertise: One of the primary challenges faced by youth-led educational technology initiatives is the need for specialized technical expertise to develop, implement, and sustain innovative digital solutions. While young innovators often possess creativity and enthusiasm, acquiring advanced technical skills in areas such as AI, AR/VR development, or data analytics can pose a significant barrier to realizing the full potential of their ideas; 2) Resource Constraints: Limited access to funding, technology infrastructure, and mentorship opportunities can impede the progress of youth-led educational technology projects, hindering their scalability, sustainability, and impact. Overcoming resource constraints and securing support for long-term project sustainability are critical challenges that young innovators must navigate to bring their ideas to fruition; 3) Implementation Barriers: Deploying educational technology solutions in real-world educational settings often entails navigating regulatory hurdles, institutional resistance to change, and varying levels of tech readiness among stakeholders. Overcoming implementation barriers, ensuring user adoption, and measuring the impact of technology interventions pose significant challenges for youth-led initiatives seeking to drive systemic change in education.

On the other hand, there are a wide range of opportunities that might evolve from implementing youth in modifying teaching technologies: 1) Creativity and Innovation: The inherent creativity, fresh perspectives, and innovative spirit of young people present unparalleled opportunities for reimagining educational technologies, challenging conventional paradigms, and introducing novel solutions to complex educational challenges. By harnessing the creative energy of youth, educational technology initiatives can foster a culture of experimentation, exploration, and daring innovation that pushes the boundaries of what is possible in education; 2) Collaborative Partnerships: Engaging in collaborative partnerships with educators, industry experts, tech professionals, and community stakeholders offers youth-led educational technology projects valuable opportunities to leverage diverse expertise, resources, and networks. By cultivating partnerships that foster knowledge exchange, mentorship, and shared learning, young innovators can amplify the Impact of their initiatives, drive innovation, and enhance sustainability; 3) Empowerment and Agency: Youth-led educational technology initiatives have the potential to empower young people as active agents of change, enabling them to shape the future of education, drive positive impact in their communities, and cultivate essential skills for success in the digital age. By providing opportunities for leadership, skill development, and real-world problem-solving, these initiatives offer a platform for youth to exercise agency, creativity, and innovation in driving meaningful change in education.

In the ever-evolving landscape of education, the vital role of youth-led innovations in educational technologies emerges as a beacon of hope and transformation. Through a lens of creativity, collaboration, and resilience, young innovators pave the way for a future where technology becomes a catalyst for inclusive, student-centered learning experiences that transcend boundaries and empower learners to reach their full potential.

In conclusion, the journey of youth-led innovation in educational technologies is not merely a story of technological advancement but a narrative of empowerment,

resilience, and collective action. By investing in the potential of young innovators, nurturing their creativity, and providing platforms for their voices to be heard, we sow the seeds for a future where education becomes a dynamic, inclusive, and transformative force for individuals and societies worldwide. As we reflect on the remarkable achievements, challenges, and opportunities encapsulated in the realm of youth-led educational technology initiatives, we are reminded of the immense potential that lies in the hands of our youth – the architects of tomorrow's educational landscape. Let us continue to champion their vision, support their endeavors, and amplify their voices as we collectively embark on a journey towards a more equitable, innovative, and empowering future of education for all.

#### References:

1. Anderson L. W., Krathwohl, D. R., Airasian, P. W., Cruikshank, K. A., Mayer, R. E., Pintrich, P. R., ... & Stiggins, R. J. (2001). A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom's taxonomy of educational objectives.
2. Dede C. (2010). Comparing frameworks for 21st-century skills. 21st-century skills: Rethinking how students learn.
3. Fullan M. (2016). The New Meaning of Educational Change. Teachers College Press.
4. Prensky M. (2001). Digital Natives, Digital Immigrants. On the Horizon, 9(5), 1-6
5. UNESCO. (2019). Futures of Education: Learning to Become. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.

## MUTAXASSISLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH ASOSLARI

Ma'rufjon Baratov

*“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti  
tayanch doktoranti, ISFT Instituti o‘quv-  
uslubiy boshqarma yetakchi mutaxassisi*

**Annotatsiya.** *Maqolada dual tizimida mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi, kasb-ta'limining mazmuni, oliy ta'lim va ishlab chiqarish uzviyligida kasbiy ta'lim dual tizimini amalga oshirishning didaktik shartlari haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *didaktika, dual ta'lim, integratsiya, kasbga tayyorlash, diagnostika qilish, muhandis-pedagog.*

Kasbiy ta'limining dual tizimi oliy ta'lim muassasasida konseptual-nazariy va didaktik asoslarga muvofiq muhandis-pedagog kadrlar kasbiy tayyorgarligining tarkibi va mazmunini ishlab chiqishni amaliy tashkil etish bilan bog'liq. Shu bilan birga, bugungi kunda ushbu ta'lim sohasining holatini tavsiflovchi muammolarni hisobga olish lozim. Ayniqsa, bu kabi muammolar sohada tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan kasbiy ta'limning uzluksiz tizimini shakllantirish, ushbu turdagi kasb-hunar ta'limining o'ziga xosligi ikki xil ta'limni integratsiyalashgan holda olib borilishidir.

Qo'shimcha kasbiy ta'limning mazmunini aniqlashda muhandislik xodimlarini, ularning professional rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan bir nechta:



- bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini pedagogik integratsiya asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy-uslubiy asoslari va ularni tayyorlashga qo'yiladigan asosiy talablar, kasbiy tayyorlash sifati va samaradorligini diagnostika qilish bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rganish;

- hozirgi vaqtda jamiyatning kasb ta'limi o'qituvchisiga talablarning tobora ortib borayotganligi kasb ta'lim jarayonida pedagogik va texnik bilimlarni integrativ (kompleks) qo'llash;

- oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarida kasb ta'limi mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning dual tizimini qurishning nazariy asoslarini ishlab chiqish va asoslash;

- oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarishda kasbiy ta'limning dual tizimini konseptual modelini yaratish, oliy ta'lim va ishlab chiqarish uzviyligida kasbiy ta'limni dual tizimini amalga oshirishning didaktik shartlarini aniqlash;

- kasbiy-pedagogik tayyorgarlik samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi integrativ ta'lim va uning natijasini diagnostika qilish metodini joriy etish algoritmi mazkur ziddiyatlarni hal etishning muhim omili sifatida qaralmaganligi kabi muammolarni yo'q qilish zarurligini hisobga olish kerakligini ta'kidlaydi.

Shuning uchun, qo'shimcha kasbning mazmunini aniqlashda faqat ta'limda mavjud muammoni hal qilish uchun emas, balki ehtiyoj bor muhandislik va pedagog xodimlarning psixologik va pedagogik qobiliyatlarini, shuningdek, ularning doimo o'zgaruvchan kasbiy kompetentligi uchun quyidagi bir qator qo'shimcha talablarni hisobga olish zarur:

- ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal etish bo'yicha boshlang'ich kasb-hunar ta'lim tizimining umumiy talablari;

- mehnat bozori talablari;

- kasb-hunarga o'qitishning davlat standartlari, o'quv rejalari va dasturlarining talablari;

- ishlab chiqarish sohasi talablari;

- ilmiy va texnologik taraqqiyot yo'nalishlari, ishlab chiqarish vositalari va texnologik jarayonlar.

Talabalar va o'qituvchilarni ajratib turadigan bir qator xususiyatlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- barcha talabalar bilan o'qituvchi o'rtasida o'zaro ishonch va hurmat muhitini shakllantirish lozim. Buning uchun savollar berish yoki o'qituvchilar jiddiy qabul qilinmasligi yoki kulishidan qo'rqsalar mavzularni o'rganishda ishtirok etish kerak; tinglovchilarda bilim yetishmasligi sababli qo'rquv, xurofot va turli fikrlar yuzaga keladi; barcha tinglovchilarni bir xil hurmat qilish lozim;

- ta'lim jarayonda talabalarning yuqori darajadagi ishtirokini ta'minlash birinchidan, bunday ta'lim usullarini tanlashni o'z ichiga oladi, u talabalarni maksimal darajada jalb qiladi. Ularga buni tushuntirish muhim, har qanday shaxsiy qadriyatlar, e'tiqodlar va fikrlarning bayonoti faqatgina mamnuniyat bilan qabul qilinadi. Bunday ta'lim usullari muhokamalar, kutilmagan g'oyalarni muhokama qilish, muayyan misollarni muhokama qilish, ushbu muammoning turli jihatlarini, rolli o'yinlarini namoyish etish, tajriba almashinuvini tashkil etishga imkon beruvchi guruh ishi va boshqalar eng foydali hisoblanadi. Ta'lim berish tezligi kichik bo'lishi mumkin, ammo bu holatda o'rganish qobiliyati yoshga bog'liq emas. Aksariyat katta yoshdagilar odatdagi ma'ruzalarni faol o'rganishni afzal ko'radilar;

– talabalarga o‘qitish uchun mas’uliyatni siz bilan baham ko‘rish imkoniyatini berish, talabalarning o‘zlarini o‘qitishda ishtirok etishini anglatadi;

– ta’limni konseptuallashtirish, ta’lim stimulyatori rolini o‘ynash, balki faqat bilimlarni yetkazish va o‘rganishni baholash emas. O‘qituvchi barcha javoblarni bilishi shart emas, ammo u talabalarni boshqarishda va javoblarni olish o‘zini yaxshi namoyish qilish kerak;

– ta’lim jarayoni talabalarning kundalik ish tajribasiga asoslanadi. Ma’lumki, ta’limni oddiydan murakkabga qarab yo‘naltirish zarur.

Ta’lim oluvchilarni o‘qitish uslubini hisobga olish yoshi kattalar ta’limi samaradorligining muhim sharti hisoblanadi. Ta’lim oluvchilar axborotni qanday qabul qilishi, tashkil qilishi va boshqalar ta’lim konsepsiyasi tushunchasi bilan bevosita bog‘liq.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, kasbiy faoliyat sohasida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni muvaffaqiyatli hal etilishni ta’minlovchi, ta’lim va ishlab chiqarishda kasb ta’limi mutaxassislarini dual tizim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash, kasbiy tayyorgarlik bosqichlari, kasbiy tayyorgarlikning sifat ko‘rsatkichlari, kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni baholash mezonlari, kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajalari va natijalarini metodologik yondashuvlar (motivatsion, kognitiv, reflektiv) asosida dual tizimda kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Смирнов С.Д. Педагогика и психология высшего образования: от деятельности к личности. – М.: Академия, 2001. – 304 с.

2. Blum A. The development of an Integred Science Curriculum. Information Scheme Fur // Science Education, 1981. – Vol. 3. – P. 1-15.

3. Чориев Р. К. Интеграция теоретических и практических знаний как средство совершенствования профессиональной подготовки будущих инженеров-педагогов // Замонавий таълим, 2020. – № 3 (88). – С. 38-46.

4. Муслимов Н. А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий методик асослари. Пед. ф. д. дисс. – Тошкент, 2007. – 315 б.

5. Исмаилова З. К. Талабаларнинг касбий педагогик малакаларини шакллантириш. Пед. фан. н. дисс. – Т.: 2000. – 186 б.




INTERNATIONAL SCHOOL  
OF FINANCE TECHNOLOGY  
AND SCIENCE INSTITUTE

# "ISFT" ILMIY-USLUBIY JURNAL

2023-yil 1-son



[www.jurnal.isft-ilm.uz](http://www.jurnal.isft-ilm.uz)



INTERNATIONAL SCHOOL  
OF FINANCE TECHNOLOGY  
AND SCIENCE INSTITUTE



# "ISFT" ILMIY-USLUBIY JURNAL

2023-yil 2-son



[t.me/isftjurnal](https://t.me/isftjurnal)



[www.jurnal.isft-ilm.uz](http://www.jurnal.isft-ilm.uz)



[www.jurnal.isft-ilm.uz](http://www.jurnal.isft-ilm.uz)